

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

YULDASHEVA (TOJIBOEVA) ZILOLA SHAXOBIDDIN QIZI

IX – XII ASRLARDA TURKISTONDA ETNOMADANIY
JARAYONLAR

5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) **ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha**
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Ish rahbari:

Katta o‘qituvchi O. Abduraupov

ANDIJON – 2018

M U N D A R I J A

Kirish.....	- 3 – 8
I – Bob. IX – X asrlarda Markaziy Osiyo mintaqalarida siyosiy va madaniy hayot.....	- 8 – 33
1. IX – X asrlarda Markaziy Osiyo xududidagi siyosiy ahvol..	- 9 – 15
2. IX-X asrlarda Movarounaxr va unga tutash mintaqalarda etno – madaniy jarayon.....	- 16 – 33
II – Bob. XI – XII asrlarda Markaziy Osiyo xududlarida siyosiy va madaniy hayot.....	- 34 – 57
1. X-XII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqalarida siyosiy ahvol..	- 34 – 40
2. X - XII asrlarda Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda etno-madaniy jarayon.....	- 41 – 57
Xulosa.....	- 58 – 60
Foydalanilgan manba va adabiyotlar.....	- 61 – 62

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Istiqlol sharofati bilan tariximizni, boy o'tmishimizni ilmiy, xolisona tarzda bayon qilish imkoniyatini ko'lga kiritdik. Mustaqillik yillarida tarix masalasiga bo'lgan e'tibor davlat darajasiga ko'tarildi. Xususan, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1998 yil iyun oyida bir guruh olimlar bilan o'tkazgan uchrashuvida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi» 1998 yil 27 iyul Qarorida va Birinchi Prezidentimizning tarixiy o'tmishimizni o'rganish muammolariga bag'ishlangan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida hamda so'nggi paytlardagi ko'pgina chiqishlarida o'zbek xalqining tarixini ilmiy, haqqoniy tarzda bayon qilish, tarixiy tadqiqotlarga keng ko'lamda yo'l ochib berish, madaniy merosimizni asrab – avaylash, milliy mafkura g'oyalarini rivojlantirib targ'ib etish va boshqa ko'plab muammolarni hal etish masalalari ko'rib chiqildi¹.

XX asr davomida etnologiya fanida boy empirik va nazariy materiallar yig'ildi. O'tgan asrning birinchi yarmida bajarilgan akademik tadqiqotlarda ko'proq o'tmishga aylanayotgan an'anaviy urf-odatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib olishga diqqat e'tibor qaratilgan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fandagi mavjud vaziyat batamom o'zgardi va etnografik materiallarning amaliy ahamiyati oshdi. Hozirda etnologiya fanidan nafaqat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechishda, balki kommunikatsiya tizimi, xalqaro savdo, diplomatiya va boshqa qator sohalarda ham foydalanilmoqda.

So'nggi yillarda jahon hamjamiyatining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekistonda ham jamiyat hayotidagi tub burilishlar va milliy tafakkurdagi o'zgarishlar tufayli o'zbek xalki etnologiyasiga qiziqish yanada kuchaydi. Ayniqsa, bu borada milliy davlatchilikning mahalliy boshqaruv usullari, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi kabi muhim muammolar bilan birga an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, tarixiy-etnografik mintaqalar etnografiyasi

¹Жаранг. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Тошкент: Шарқ, 1998.

hamda turli hududlarga xos etnolokal an'analarni o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmokda. Qolaversa, sohada bajarilayotgan tadqiqotlar ham xajm, ham mazmun-mohiyat jihatidan boyib borishining asosiy sabablaridan biri - bu mustaqillik yillarida o'tmish tarix va milliy qadriyatlar hamda an'analarga bo'lgan kiziqishning keskin ortganligidan, deb aytish mumkin. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli mamlakat bo'lgani bois, nafaqat o'zbek xalqi, balki mamlakatimiz hududida yashayotgan boshqa xalqlarning etnomadaniy va ijtimoiy-diniy yaqinligi millatlararo etnomadaniy muloqotlarni tarixiy-etnografik aspektda o'rganish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Tarix instituti Etnologiya bo'limi mutaxassislari va Respublikamizning boshqa etnolog olimlari tomonidan keyingi yillarda qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz etnologlari tomonidan bajarilayotgan ilmiy izlanishlar nafaqat mazmun va mohiyatibilan, balki uni bajarishdagi nazariy – metodologik jihatdan yondashuvlar xam o'zgarganligi yaqqol sezilmoqda.

Malakaviy ishning ob'ekti va predmeti . Tadkikot ishini ob'ekti va predmetiniyozish uchun ko'plab adabiyotlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning va Prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning asarlari va mavzuga doir bildirgan fikr hamda nutqlari tashkil etadi¹.

Bugungi kunda etnologik tadqiqotlardan biri sifatida "An'anaviy va zamonaviy etnoslararo jarayonlar" yo'nalishida ham qator amaliy ishlar bajarilgan

¹Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. -Т., «Ўзбекистон», 1992; Ўша муаллиф. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. -Т., «Ўзбекистон», 1995; Ўша муаллиф. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Т., «Ўзбекистон», 1997; Ўша муаллиф. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. -Т., «Ўзбекистон», 1998; Ўша муаллиф. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т., «Шарқ», 1998; Ўша муаллиф. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Т., Ўзбекистон, 1998; Ўша муаллиф. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. -Т: Ўзбекистон, 2011.Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Т:; “Ўзбекистон”, 2017.Мирзиёев Ш.М.Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т:; “Ўзбекистон”, 2017.

boʻlib, Bitiruv Malakaviy Ishni tayorlashdan bosh maqsad - Oʻzbekiston xududida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida yashagan turli etnosvaetnografik guruhlarining oʻzaro etnik hamda madaniy aloqalari xarakterini tarixiy-etnografik materiallarni yigʻib tahlil qilish hisoblanadi. Natijada "etnomadaniy jarayonlar", "etnik va madaniy identiklik muammolari", "zamonaviy jamiyatda milliy-etnik jarayonlar", "etnopsixologiya", "etnoslararo kommunikatsiya" kabi etnologiya yoki etnologiya fanining yangi yoʻnalishlarida qator tadqiqotlar bajarilganini koʻramiz.

Maʼlumki, soʻnggi yillarda etnologiya fanida etnik mansublikni urugʻ, qabila, elat, el kabi tarixiy-ijtimoiy birliklar tarzida talqin qilinishi biroz munozaralarga sabab boʻlgan boʻlsa-da, ular maʼlum bir tarixiy taraqqiyot davomida u yoki bu xalqning etnogenetik jarayonida faol ishtirok etgan va uning tarkibiy qismiga aylangan etnik guruhlar anchagina. Tarixda har qanday ijtimoiy tuzilma u etnik birlik, urugʻ, qabila, elat, millat deb atalishidan qatʼiy nazar, bu davrda Oʻrta Osiyo xalqlari koʻplab katta-kichik etnik va etnografik guruhlardan tashkil topgan edi.

Tadqiqotlarda etnoslararo aloqalar oʻziga xos tarixiy «etnomuloqot hududlar»dan biri boʻlgan Fargʻona vodiysi va oʻziga xos tarixiy-etnografik koʻriqxonalar» hisoblangan Surxondaryo xamda Qashqadaryo viloyatlari misolida oʻrganilgan. Unda etnomadaniy aloqalar anʼanaviy xoʻjalik va savdo – sotiq aloqalari misolida tahlil qilingan. Shuningdek, bu davrda Oʻzbekiston aholisining etnomadaniy aloqalarini moddiy madaniyatda, xususan, turarjoylar, kiyimlar va taomlarda namoyon boʻlishini etnografik materiallar asosida koʻrsatib berishga alohida eʼtibor qaratilgan.

Mavzuni oʻrganilish darajasi: shubhasiz, koʻplab tadqiqotchilar anʼanaviy etnoslararo jarayonlarning tavsifi bilan cheklanib qolmasdan, ushbu jarayonlarning mohiyati, rivojlanish yoʻnalishlarini koʻrsatib berishga hamda bu jarayonlarga taʼsir etuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilishni ham oʻz oldilariga maqsad qilganlar. Qolaversa, Bitiruv Malakaviy Ishni tayorlashda oʻrganilgan davrda mamlakatimizning turli mintaqalarini etnik holati va etnomadaniy jarayonlarga tarixiy jarayonlarning u yoki bu darajadagi taʼsiri inkor etmagan holda, ijtimoiy-

siyosiy jarayonlar va madaniy mansublik muammosiga ham e'tibor qaratilgan. Bu jarayonlarni tahlil qilish asnosida etnos va etniklikka oid etnologiyaning zamonaviy maktablarining ilg'or vakillari qarashlarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda qator yangi ilmiy xulosalar bayon qilingan.

O'zbek xalqining asosini tashkil etgan etnik guruhlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diylar, baqtriylar (baxtariylar), xorazmiylar, farg'onaliklar, yarim chorvador qang'lilar, ko'chmanchi sak – massaget kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan turli davrlarda Movarounnahrda kirib kelgan etnik komponentlar ham o'zbek etnogenezida ishtirok etganligi tarixdan ma'lum. Shu o'rinda o'zbek xalqni etnogenezining boshlang'ich «nuqtasi» va «yakuni» masalasi katta qiziqish uyg'otadi. Dastlab o'zbek etnogenezining ilk nuqtasi turk xoqonligidan boshlandi, degan tezis paydo bo'ldi (akademik A.Yu.Yakubovskiy nuqtai nazari). Keyinroq, turkiy etnik guruhlar bu zaminga ancha avvalroq, antik davrda kirib kelgan, shuning uchun o'zbek etnogenezini antik davrdan boshlash kerak, degan tezis paydo bo'ldi (akademik S.P.Tolstov nuqtai nazari). Akademik Karim Shoniyozov ham o'zining so'ngi fundamental tadqiqotini¹ mana shu nuqtai nazar asosida yozgan.

Hozirgi kunda bu sana yanada qadimishlashtirildi, ya'ni so'ngi bronza davri bilan belgilanmoqda. Bunda akademik A.Asqarovning nuqtai nazari² muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ilmiy tadqiqotlarida o'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasi so'nggi bronza davriga borib taqalishi asoslanib, o'zbek elati xalq bo'lib shakllanish yakuni esa milodiy XI–XII asrlarda deb ko'rsatiladi. Mazkur ulkan tarixiy davr ichida ajdodlarimiz bir necha etnomadaniy bosqichlarni bosib o'tadi. O'rta Osiyo hududiga turli turkiy qabilalar va etnik guruhlarining kirib kelishi bilan elatga xos etnik omillar birin-ketin shakllanishini ta'minladi va

¹Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент: Шарқ, 2001.

²Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Т.: Университет, 2007.

natijada o'zbek xalqi shakllandi. Bu jarayonlarni quyidagi bosqichlarda ko'rsatish mumkin:

O'zbek xalqi etnogenezining birinchi bosqichi — boshlanishi bronza davriga borib taqaladi. Arxeologik materiallar tahliliga ko'ra, bu bosqich mil. avv. II ming yillikning o'rtalaridan to makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyo hududiga kirib kelishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr, o'z navbatida, qator tarixiy voqealar bilan xarakterlanadi. Yevroosiyo cho'llarining chorvador aholisi hayotida ot, eshak va tuyadan transport vositasi sifatida foydalanishga o'tilgach, dasht aholisining o'z chorva podalarini haydab janub va g'arbga tomon migratsiyasi boshlanadi. Shu munosabat bilan bir guruh dasht aholisi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida (bronza davri) O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy tomonidan Amudaryoning quyi havzalariga kirib keldi. Ungacha bu zaminda Kaltaminor madaniyati (neolit davri) va Suvyorgan madaniyati (eneolit va bronza davri) aholisi yashab kelar edilar. Yangi etnik guruhning moddiy madaniyat izlari S.P.Tolstov tomonidan 1938 yildan boshlab qadimgi Xorazmda, Audaryoning Oqchadaryo o'zanidan tortilgan Tozabog'yob kanali rayonidan topib o'rganildi. Qadimgi Xorazm tarixining bilimdoni S.P.Tolstov bu yangi etnik guruhga tegishli yodgorliklarni «Tozabog'yob madaniyati» deb ataydi.

Ikkinchi bosqich — antik davrda, ya'ni Da-yuechji qabilalari va hunnlarning bu zaminda paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Bu davrda turkiy etnos foydasiga tub o'zgarishlar yuz beradi. Xususan, miloddan avvalgi III – milodiy V asrlar davomida Qang' davlati doirasida qang'ar elati tashkil topadi, Sirdaryoning o'rta havzasi rayonlarida ikki tilli aholi etnik guruhlari omuxtalashgan moddiy voqelik — Qovunchi madaniyati va o'zbeklarga xos antropologik tip — «O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i tipii» shakllanadi va nihoyat o'zbek xalqi asoslari dastlab tarkib topgan etnomadaniy maydon tarkib topadi.

Uchinchi bosqich - yurtimizning ichki hududlariga xioniylar, kidariylar (toxarlar), eftaliylar kabi turkiy tilli qabila va elatlarning kirib kelishi bilan bog'liqdir.

Malakaviy ishning nazariy – metodologik asoslari: Mavzuni yoritish jarayonida ijtimoiy voqelikni bilish va o'rganishning dialektik metodi, uning ilmiylik, xolislik, tarixiylik, uzviylik tamoyillariga tayanildi. Asosiy e'tibor yuz bergan voqealarning o'zaro dialektik aloqadorligiga qaratildi. Tadqiqot jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g'oyasidan kelib chiqqan holda yondashildi.

Malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu ishda Vatan tarixining bizga hali noma'lum bo'lgan qirralarini, ayniqsa, O'zbekiston hududidagi an'anaviy etnoslararo jarayonlar hamda o'zbek xalqi va aholisining etnik shakllanishi, tarkibi va undagi asosiy bosqichlarni, tarixiy voqeliklarni to'g'ri yoritishga, uni to'ldirish, aniqlik kiritish va xolisona baholashga asoslanadi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Ish kirish, ikkita bob, har bir bob ikkitadan paragrifdan hamda, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I – Bob. IX – X asrlarda Markaziy Osiyo mintaqalarida siyosiy va madaniy hayot.

1. IX – X asrlarda Markaziy Osiyo xududidagi siyosiy ahvol.

Turkesh xokonligi davrida Yettisuv aholisi bilan Movarounnahr aholisi o'rtasidagi etnik, iqtisodiy va madaniy aloqalarda ma'lum o'zgarishlar bo'lgan. Ayrim jabhalarda (tijorat, madaniyat va ma'naviyatda) o'zaro yaqinlashish bir muncha rivojlangan. Movarounnahrda qatiylashib borayotgan islom dini Sirdaryoning o'rta oqimlaridagi shahar va qishloqlarga ham bir muncha ta'sir qilgan, ammo ayrim noiblar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib Movarounnahr bilan bo'lishgan aloqalar bazan uzilib ham qolgan.

O'zbek elatining shakllanishida Qarluq davlatining roli benihoyat katta. X asr o'rtalaridan boshlab bu davlat tarixiy manbalarda qoraxoniylar davlati bilan tilga olinadi. Qarluq xoqonlarining unvonlarida Qora (ulug', buyuk ma'nosida) atamasi mavjud bo'lganligi sharqshunos olim V. V. Grigorev qarluq tomonidan tashkil etilgan davlatni Qoraxoniylar davlati deb ilmiy adabiyotlarga kirg'izgan. Haqiqatda esa Qoraxoniylar davlati Qarluq davlatining o'zi uning davomi bo'lgan.

Qarluqlarning IX - X asrlarda egallab turgan hududda 20 dan oshiq katta shahar, juda ko'p qishloqlar bo'lgan. Qarluqlar, "Hudud al - olam" qo'lyozma asarida (X asrda) qayd etilishicha ko'p sonli, nufuzli xalq bo'lib bir qismi chorvachilik, bir qismi ovchilik va yana boshqa bir qismi esa o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Katta hududda qarluqlarning faqat bir o'alarigana yashamay, ular bilan birga bir qancha boshqa turkiy qabilalar ham aralash holda yashab kelgan. Etnoslarning ichida eng yirigi chigil, xalach va laban bo'lib, bular aslida qarluq qabilalaridan hisoblanadi. Yirik qabilalardan yana biri — yag'mo bo'lib, bular VIII asrlarda Teles qabila itgifoqidan ajralib chiqib, qarluqlarga qo'shilgan. Qarluqlar egallab turgan hududda yana turk va turkesh xoqonliklari tanazzulidan keyin shu yerlarda qolib yashagan nushubi, dilu, arg'u, tuxsi, az, uz, sariq va boshqa guruhlar ham mavjud bo'lgan.

Qarluqlar hududdagi shahar va qishloqlarda dehonchilik, hunarmandchilik va savdo - sotiq bilan shug'ullanib kelgan turg'un aholi ham salmoqli o'rin egallagan. Bu aholining asosiy qismini asrlar davomida o'troqlashib qolgan turkiyzabon aholi tashkil etgan. Buyuk Ilak yo'lidagi shahar va qo'rg'onlarda (Isfijob, Tarozi, Bolasag'un, Suyob, Qoshg'ar, Xo'tan va boshq.) Turkiyzabon aholi bilan birgalikda So'g'diylar (so'g'dak) va boshqa elat kishilari ham yashagan. Bularning ko'pchiligi asosan xunarmandchilik va tijorat ishlari bilan shug'ullanib, ayrim shahar va qishloqlarda alohida jamoa bo'lib yashaganlar.

Qarluk davlati hududida yashovchi ayrim etnik guruhlar, masalan, yobaku, yoriq (joriq) va boshqalar o'zbek elatining shakllanishida qatnashmagan bo'lishi ham mumkin. Arg'u, tuxsi, bijanak (pecheneg), turkesh qabilalarning bir qismi yoki ayrim guruhlar qarluq xoqonlarining itoatida bo'lsalar hamki, o'z qabila tuzumini saqlab shakllanayotgan elatga qo'shilmay kelar edilar. Demak, o'zbek elatining shakllanib borishida bu hududda joylashgan etnoslarning barchasi ham bir maromda ishtirok eta olmaganlar; elatga aniq bir hududda asrlar davomida yonma-yon yashab kelgan (oldinlari boshqa tilda so'zlashgan bo'lsalar ham), turmush tarzi, an-analari madaniyatlari bilan bir-birlariga yaqin bo'lgan etnoslar yoki ularning ma'lum qismi qatnashishi mumkin bo'lgan¹.

Etnosni shakllanish jarayoni ma'lum bir davlat hududida o'tishi etnogenetik shartlardan biri hisoblanadi. Albatta nazariy tomondan qaraganda shunday bo'lishi kerak. Ammo ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo shaharlari sharoitida qatnashgan etnik elementlar qo'shni davlatlar hududida ham yashab, malum darajada etnogenetik jarayonda ishtirok etganlar. Masalan, shakllanayotgan tojik etnosi nafaqat Somoniylar xukmronlik qilayotgan yerlarda, balki qarluq va uyg'ur davlatlari hududida ham yashar edalar; bularning ma'lum qismi tojik xalqining etnogenezida qatnashganlar, ayrim qismlari esa qarluq va uygur davlati ichida qolib, bu yerdagi aholiga aralashib ketgan edilar.

Shuni ham o'qtirib o'tib joizki, Somoniylar hududiga kelib o'rtnashgan turkiyzabon etnoslar va ayrim kishilar, xo'jaliklar, islom dinini qabul qilishlari

¹Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Т.: Университет, 2007. – Б. 65.

kerak edi; bu Movarounnahrğa kelib oʻrnashishini asosiy sharti edi. Somoniylar zz hududlarini yomon niyat bilan, yovuzlik qilib bostirib kiruvchi koʻchmanchi qabilalardan himoya qilganlar. Islom dinini qabul qilib, najot soʻrab utloq, yaylov, yer soʻrab kelganlar hech qanday qarshiliksiz qabul qilingan.

Keltirilgan maʼlumotlarga asoslanib aytish mumkinki, toji va oʻzbek ajdodlari qadimda, ilk oʻrta asrlarda va keyin ham doimo birga bir hududda aralash, yonma—yon yashab kelganlar. Bularni bir-birisiz tasavvur qilib boʻlmagan. Shuning uchun ham Mahmud Qoshgʻariy, “totsiz turk boʻlmas, boshsiz burk boʻlmas”, yani tojiksiz turk boʻlmagandek bosh qalpoqsiz (bosh kiyimsiz) boʻlmas degan maqolni keltirgan edi. Tot atamasini bu yerda Mahmud Qoshgʻariy fors-tojiyak tilli aholiga nisbatan koʻllagan.

Tojik va oʻzbek ajdodlarning ilk oʻrta asrlarda elat boʻlib shakllanishi ikki davlat — Karluq va Somoniylar hududi oʻtganligi tabiiy holat edi albatia. Bu yakki xalqning bu hududda shakllanishi tufayli ularning etnogenetik tarixining koʻp qirralarida umumiylik hosil boʻlgan.

Maʼlumki, oʻzbek va tojik elatlari qadimgi etnoslardan (sak, massagetlar, baqtriyaliklar, yuechji toxarlar, soʻgʻdiylar, qangʻarlar va boshqa xalqlardan) tomir olganlar. Shuning uchun ham ularning madaniyat va turmush tarzlarida, urf-odatlarida oʻxshashliklari koʻp boʻlgan. Shu bilan birga, ularning har biriga xos (bir elatni ikkinchisidan farqini bildiruvchi) xususiyatlari—tili, oʻzligini anglashi, ruhiyati va boshqa ham mavjud edi. Bu xususiyatlari bilan bir elat ikkinchi elatdan ajralib turgan¹.

IX—X asrlarda Xorazm oʻlkasida turgʻun yashovchi turkiyzabon aholi (qangʻli, bejanak, oʻgʻuz) ham mavjud boʻlgan. Ammo bular son jihatidan tub yerli, Xorazm aholisidan ham edi. Soʻzsiz turkiyzabon etnoslarning taʼsirida Xorazm aholisining talay qismi (shaxsan alanlar) turkiylashib qolgaya edilar. Lekin Xorazm hududida yashovchi koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi turkiy zabon aholi Xorazmning turgʻun aholisiga iqtisodiy hamda madaniy jihatdan tasir etishga ojizlik qilar edilar. Xorazmliklarning iqtisodiy va madaniy darajasi, ong

¹Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. —Тошкент: Шарқ, 2001. — Б. 56.

sezimi ularga nisbatan yuqoi bo'lgan. Bu o'lkani tarixiga oid barcha tomonlarini hiyasobga olib, Xorazm aholisi XII asrlar boshlarigacha (mo'g'ullar istilosigacha) alohida elat (Xorazm elati) bo'lgan desak xato bo'lmas.

Ong sezimi, o'zligini anglash (albatta o'z davri darajasida) turkiylik (til jihatidan) tushunchasi IX—X asrlarda o'zbek ajdodlarining elat bo'lib shakllangan qismida qattiyqlashibqolgan edi desak xato bo'lmas, ammo iqtisodiy va madaniy taraqqiyot (o'zbek ajdodlarining elat bo'lib shakllangan qismida) hali nihoyasiga yetmagan edi. Shu davrlarda (IX—X) etnogenetik jarayonda qatnashgan etnik guruhlarining ayrimlari ko'chmanchilikda va yarim o'troqlikda kun kechirib, chorvachilik bilan birga dehqonchilik qilib ham kelganlar; uchinchi guruhlar dehqonchilik, xunarmandchilik va tijorat ishlari bilan shutg'ullanib kelganlar. Bu guruhlar o'rtasida hali iqtisodiy aloqalar yetarli darajada emas edi. Bularning madaniy darajasida ham tafovut katga edi. Qarluq davlati hududida turli diniy e'tqodlar (tangriga sig'inish burxonlik, budda, xristian va boshq.) mavjud edi. Ilm-fan taraqqiyoti ham yetarli darajada rivoj topmagan. Qarluq - chigil lahjasi ustivorlik qilib kelayotgan bo'lsa ham, ammo bulahja o'zbek elati tarkibiga kirgan barcha etnik guruhlariga singib, umum elat tili darajasiga ko'tarilish jarayoni nihoyasiga yetmagan edi.

Etnik jarayon oxirlashi uchun elatni shakllanish darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar shu davlat hududi rivojlavib elat va hudud ichida qat'iylashib qolishi lozim edi. Buning uchun ma'lum vaqt kerak bo'lgan.

X asrning oxirlarida ichki ziddiyatlar kuchayib Somoniylar davlati kuchsizlanadi. Bundan Qoraxonlilar foydalanadilar; harbiy yurishlar qilib, ular 998 — 1011 yillar davomida Movarounnahrni katta qismini egallab o'z hukmronliklarini o'rnatadilar¹.

XI asr boshlarida Qoraxonlilar davlati Amudaryodan to Torim daryosigacha bo'lgan katta hududga egalik qiladilar Amudaryo Qoraxonlilar bilan G'aznaviydar o'rtasida chegara bo'lib koladilar. Shu vaqtdan o'zbek ajdodlarining etnogenetik jarayoni taraqqiyoti ikkini bosqichga o'tadi.

¹ Shamsutdinov R., Karimov SH. Vatan tarixi. K. 1/ - T.: "Sharq", 2010. – B. 87.

Movarounnaxr Somoniylar davrida, sharqda iqtisodiy va madaniy jihatdan eng taraqqiy etgan hudud edi. Bu hududning shahar va qishloqlari obod bo'lgan. Jamiyatning hamma tomonlarida islom dini va shariat qoidalari xukm surgav. Movarounnahrda kirib kelgan qoraxonlilar shu yetuk madaniyatga egalik qilib, uni davom ettiradilar. Ko'chib kelgan qabilalar yarim ko'chmanchi va yarim o'troq etnik guruhlar bo'lib, ular chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan ham shug'ullanadilar. Keyinchalik ularning ko'pchiligi o'troqlalashib, shahar va qishloqlarda turg'un aholi hayotiga moslashib boradilar.

XI asrning birinchi yarmilarida qoraxonlilar davlatida ichki kurashlar kuchaya boradi. Xokimiyat uchun kurash oxir-oqibat davlatni inqirozga olib keladi. XI asrning ikkinchi yarmida Qoraxonlilar davlatida ikki mustaqil davlatga bo'linib ketadi. Sharqiy qismining markazi Balasag'un bo'lib qoladi, g'arbiy qismining markazi Samarqand bo'ladi. Shu sanadan Qoraxonlilar davlati tarixining uchinchi bosqichi boshlanadi.

G'arbiy Qoraxonlilar davlati XI—XII asrlar davomida iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan; markazlashgan davlat darajasiga ko'tarilgan edi. Bu davlat XI asr oxirlarida Saljuqiylar XII asr o'rtalarida esa Qoraxoniylarga qaram bo'lgan bo'lsalar hamki o'z davlat tuzumining butunligini saqlab qolgan edilar.

G'arbiy Qoraxonlilar davlati ichida o'zbek ajdodlarining enogenetik jarayoni davom etadi. Movarounnaxrga kelib o'rtnashgag etnik guruhlar asrlar davomida bu hududda yashovchi qardoshlari bilan birlashib, ular bilan aralashib boradilar. Tub yerli aholi ta'sirida yarim ko'chmanchi va yarim o'troqlikda yashab kelgan etnik guruhlar o'troqlashib dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanadilar. Ularning faqat oz qismi dehqonchilik bilan bir vaqtda an'anaviy chorvachiliklarini davom qilib kelganlar¹.

Movarounnaxr hududidagi turkiy xalqlarning o'zaro yaqinlashib, qorishib borishi natijasida hudud aholisi o'rtasida iqtisodiy va madaniy umumiylik qat'iylashadi. Umum elat tili va adabiy til shakllanadi. Movarounnahr va unga tutashgan mintaqalarda yashovchi barcha turkiyzabon aholi bir xalq (elat)

¹Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. —Тошкент: Шарқ, 2001. — Б. 66.

bo'lganligi ong sezimida butkul o'rnashib qoladi. Boshqacha qilib aytganda elat shakllanishidagi barcha etnik alomatlar o'z maromiga yetib, o'zbek ajdodlarining elat bo'lib shakllanish jarayoni oxirlashadi. Ammo bu bilan etnogenetik jarayon to'xtab qolmaydi. Keyingi bosqichlarda u yana ham takomillashib boradi.

Yuqorida aytganlarimizdan xulosa qilib aytmoqchimizki, o'zbeklarning ilk ajdodlari Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda madaniyatlari bir-birlariga yaqin, ikki tilda so'zlashuvchi qardosh o'zbek va tojik xalqlari elat bo'lib shakllangan. Ularning ilk ajdodlari Movarounnahrda va unga chegaradosh xududlarda qadim zamonlarda yashagan so'g'diylar, xorazmiyliklar, baqtriylar, saklar, toxarlar, qang'arlar va boshqa xalqlar bo'lgan. Shimoliy Xitoyda, Sibir, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Sirdaryo sohillarida antik davrlarda va ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan turkiy qabilalar (xun, usun, dulu, turkash, qarluq, chig'il, xalach, yag'mo va boshq.) ham o'zbek ajdodlarining etnogenetik jarayonida muhim o'rin egallagan. Tilga olingan xalqlar va qabilalarning ko'pchiligi o'rta asrlar davomida elat bo'lib shakllangan turkman, qozoq, qirg'iz va qorqalpoq xalqlarining ham etnik tarixida juda katta rol o'ynagan. Demak, Markaziy Osiyoda yashovchi barcha xalqlar asrlar davomida etnik jixatdan bir-birlari bilan yaqin aloqada, qavm qarindosh bo'lib kelgandar.

Shunday qilib, IX—X asrlar davomida shakllangan o'zbek elatining o'zagi turkiy etnoslarning fors tojik tilli aholi bilan asrlar davomida aralashib, qorishib ketishidan hosil bo'lgan. XI —XII asrdarda o'zbek elatining tarkibida turkiy komponentlar ko'payadi va uning rivojlanishi asosan turkiy komponentlar asosida o'tadi. Shu asrlar davomida barcha etnik ko'rsatkichlar mujassamlashadi, o'zbek ajdodlarning alohida jamoa (elat) bo'lib shakllashishi nihoyasiga yetadi. Shakllangan o'zbek elatining taraqqiyoti keyingi asrlarda ham davom etadi¹.

Prezidentimiz jumladan shunday degai edi: «Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bo'lsa, bunday odamlarni yo'ldan urush, har xil aqidalar ta'siriga tortish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni

¹ Shamsutdinov R., Karimov SH. Vatan tarixi. K. 1/ - T.: "Sharq", 2010. – B. 95.

hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustaxkamlaydi». Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyotida tarixning o'rni va roli nihoyatda katta bo'lib, bu jarayonning hozirgi kunda davlatimiz ma'naviy hayotida tutgan o'rni beqiyosdir.

O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi hozirgi kunda tariximizda kam yoritilgan va ilmiy asosda tamomila yangitdan ko'rib chiqishga mansub bo'lgan masalalardan biridir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixni tag – tomirigacha nazar tashlaymiz»¹. Darhaqiqat, uch ming yillikdagi ziyod davlatchilik tarixiga ega bo'lgan xalqimizning ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi.

¹Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. -Б.84.

2. IX-X asrlarda Movarounaxr va unga tutash mintaqalarda yetno – madaniy jarayon.

Ilk oʻrta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining etnik va madaniy taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga molik boʻlgan bir necha viloyatlar mavjud edi. Fargʻona, Ushrushona, Shosh, Soʻgʻd, Kesh, Nasaf, Toxariston, Xorazm shular jumlasidan. Markaziy Osiyo xalqlarining, jumladan oʻzbek xalkining shakllanish jarayonida Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Sirdaryoni oʻrta va kuyi oqimlarida, unga tutash choʻllarda yashagan etnoslarning ham roli oz boʻlmagan albatta. Bu xududlar koʻp asrlik tarixiy davrlarni oʻtib, qanchadan-qancha etnik uyushmalarni, davlatlarni, qirgʻin urushlarni, bosqin va talonchilikni kechirgan. Uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy sharoitga qarab, har bir xududning aholisi, uning etnik tarkibi va oʻziga xos iktisodiy va madaniy hayoti shakllangan. Shu bilan bir vaqtda mazkur oʻlkalar iktisodiy, madaniy va etnik jihatdan bir-birlari bilan doimo uzviy bogʻliq boʻlib kelgan. Markaziy Osiyo xalkdarining tarixiy iqboli ham deyarli bir xilda kechgan.

IX—X asrlarda Markaziy Osiyo xududlarining etnik tarkibi bir tekisda boʻlmagan. Tilga olingan viloyatlarning asosiy xalqi, yuqorida qayd etib oʻtganimizdek, qadimdan turgʻun yashab, dehqonchilik, xunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shugʻullanib kelgan. Soʻzsiz IX—X asrlarda bu aholining katta kismi turkiyzabon xalklar boʻlgan. Vohalarda turkiy xalkdar bilan yonma-yon, koʻp hollarda aralashib tojik xalqi ham yashagan. Arab istilosidan keyin ayrim viloyatlarda turgʻun boʻlib, arablar va etnik guruxdar ham joylashib qolgan. Turkiyzabon aholining maʼlum qismi ilk oʻrta asrlarda koʻchmanchi, yarim koʻchmanchi va yarim oʻtroq hayot kechirib, xoʻjaligida chorvachilik muhim ahamiyatga ega boʻlgan. Chorvador va oʻtroq xalklar doimo bir-birlari bilan iktisodiy va madaniy aloqada boʻlib kelganlar¹.

Movarounnaxr xududida mavjud boʻlgan viloyatlarning barchasi IX—X asrlarda iktisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan, hosildor yerlari, mevalari serob boʻlgan. Al-Istaxriy (IX asrning ikkinchi yarmi — X asrning birinchi yarmi)

¹Ўзбекистон худудида анъанавий этнослараро жараёнлар.-Т., Янги нашр, 2011. –Б. 45.

o'zining «Masalik al-mamalik» ismli jug'rofiy asarida «So'g'dda, Ushrushonada, Farg'onada va Shoshda (Choch) shu darajada serobgarchilikki, ular (viloyat aholisi) hayvonlarini meva berib boqadilar», deb yozgan edi. Istaxriy bu so'zlar Osiyoning ko'p viloyatlarida bo'lib ularning geografiyasini o'rganish bilan bir vaktida tabiatining, kishilarining hayoti bilan ham tanishgan, hamda Movarounnaxr sharoitini boshqa xududlar bilan solishtirib shu xulosaga kelgan bo'lishi kerak.

Arab va fors tilli manbalarda kayd etilgan ma'lumotlardan, o'sha davrlardagi Movarounnaxr viloyatlarining ichida eng ko'p nufuzli hudud Farg'ona vodiysi bo'lganligini tushunib olish qiyin emas. X asr Farg'ona viloyatida 40 ta shahar bo'lgan¹. Uning poytaxti shu davrlarda Axsikent bo'lib, shaharning kattaligi (aylanmasiga) 3 farsang masofaga cho'zilgan bo'lib, uning ichida bog', kanallari va bir qancha xrvuzlari borligi qayd etilgan. Axsikentning atroflarida (devordan tashqarisida) ham bog'lar, daraxtzorlarning mo'lligi va ular bir-birlaridan uzilmasdan 2 farsang masofagacha cho'zilib ketgan, deb ta'riflanadi². Farg'onada Axsikentdan tashqari yana bir kancha shaharlarning nomlari qayd etilgan. Vodiydagi shaharlarning ichida eng yiriklari sog'lom shaxar Quba (hozirgi Quva), O'sh, O'zgan edi. Bu shaharlarning ichida va atroflarida bog'-rog'lar va kanallar mavjudligi ta'kidlab o'tilgan.

Farg'ona vodiysida qishloqlarning mo'lligi va kattaligidan bu xududda IX—X asrlarda o'troq aholining birmuncha zich joylashganligidan dalolat beradi. So'zsiz turg'un aholining vodiya bu qadar ko'pligi avvalo, mazkur hududning tabiiy va iqtisodiy jihatdan boyligi bo'lsa kerak.

Arab va fors tilida yozilgan tarixchi va geograflarning aytganlarini xisobga olib IX-X asrlarda Farg'ona vodiysida turg'un yashovchi aholining 1,5 mln. deb taxmin qilish mumkin. Bunga tog'oldi yaylovlarida, vodiyning shimoli-sharqidagi tog'li rayonlarida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi kirmaydi.

¹Фарғона IX—X асрларда иқтисодий жиҳатдан қуйидаги туманларга бўлинади: Косон, Жидгил ва Миён - руд. Бу туманларнинг ҳудудида бир қанча шаҳар ва қишлоқлар мавжудлиги манбаларда қайд этилади.

²Аммо фарсах ҳамма ерда ва ҳамма вaктда бир хилда бўлмаган. Масалан: Бухорода, Тошкентда, Фарғонада ва Хоразмда XIX асрда бир фарсах 0,5 км, баъзан бундан ҳам ортиқроқ.

Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qavmlarning soni taxminan 0,5 mln. kishi bo'lgan desak, shunda Farg'ona vodiysining aholisi 2 mln. kishi bo'lib chiqadi¹.

Farg'ona vodiysining g'arbiy chegarasi «Sirdaryoning o'rta qismidagi viloyatlarga ulanib ketgan. Bu mintaqada (Sirdaryoning o'rta qismida) Xo'jand, Usurshona (Sirdaryoning chap sohilida) va Shosh vohasi joylashgan.

Farg'onadan Usrushonaga o'tishda Movarounnaxrning o'rta asrlardagi yirik shaharlaridan biri Xo'jand joylashgan bo'lib, u IX—X asrlarda arab geograflarining ma'lumotlarida alohida viloyat (Xo'jand viloyatining) markazi xisoblangan.

Usrushonaning poytaxt shahri Bunjiketdan tashqari yana boshqa shaharlar ham tilga olinadi. Shularning ichida eng yiriklari Zomin va Jizzax shahari hisoblangan. Bu shaharlar Buyuk Ipak yo'lida joylashgan bo'lganligidan o'z davrining birmuncha taraqqiy etgan shaharlaridan hisoblangan. Namlari keltirilgan shaharlardan tashqari viloyatda yana bir qancha shaharlar bo'lib, ularning har biri katta rustaqning markazi hisoblangan².

Turkiyzabon xalqdarning turg'un yashovchi qismi nafaqat Usrushona viloyatida, Movarounnahrning barcha viloyatlarida qadim davrlardan yashab kelganligi tarixdan ayon. Lekin shular qatorida IX – X asrlarda Movarounnaxrda, uning cho'l zonalari va tog'li rayonlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiyzabon etnoslar ham oz bo'lmagan.

Somoniylar xizmatida ham turkiy qullar oz bo'lmagan. Bularning ichidan viloyat hokimlari, harbiy sarkardalar, hatto davlat boshlikdari yetishib chiqqan: Samjuriy, Alptegin, Tosh, Faiq va boshqalar shular jumlasidan. Alp-tegin, Somoniylarning sobiq quli, keyinchalik yirik harbiy sarkarda. Xuroson viloyatining hokimi va yirik feodal. U boyib Xuroson va Movarounnahrda joylashgan 500 qishloqni sotib olgan, har bir shaharda qasri, hovli-joylari, karvonsaroylari mavjud bo'lgan. Alp-teginning Nishopur bozoridan sotib olgan

¹Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 193.

²Бир қанча қишлоқлар бир рустакни ташкил қилган катта шаҳарлар атрофида бир неча рустак мавжуд бўлган. Мўғуллар ҳукмрон даврларида Туркистонда ва Эронда рустак сўзи туман (ўн минг дегани) сўзи билан алмаштирилган.

Sabuk (keyinchalik Sabuk-tegin) ko'tarilib yirik harbiy sarkarda bo'ladi va 977 yilda G'aznani qo'lga kiritib Xurosonda G'aznaviylar sulolasiga asos soladi¹. Sabuk-tegin vafotidan keyin (997 y.) Qoraxoniylar bilan birgalikda uning katta o'g'li Maxmud G'aznaviy Somoniylarga qattiq zarba berib Xurosonni batamom egallab, uning chegarasini kengaytirib yirik davlatlar darajasiga ko'taradi. Ayni shu yillar (999 y.) Qoraxoniylar Movarounnahrni batamom qo'lga kiritdilar. Shunday kilib X asr oxirida Osiyoning markaziy hududlarida ikki yirik davlat Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlati vujudga keldi. Har ikkalasini ham turk kishilari boshqargan.

So'g'diyona o'lkasining taraqqiy etishida uning geografik jihatdan qulay o'rnatilgan joyi ham benihoyat katta ahamiyatga ega edi. Zarafshon vohasidagi yirik shahar va qishloqlar katta tijorat yo'lida — Buyuk ipak yo'lida joylashganligidan bu o'lka aholisi bir qancha mamlakatlar, xalklar va elatlar bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalar olib borish imkoniyatiga ega edi. Bu muhim aloqa yo'li orqali Movarounnaxrga turli mamlakat va o'lkalardan xilma-xil tovarlar keltirilgan, o'lkadan ham chetga dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari chiqarilgan. So'g'diyonani o'troq aholisining (so'g'diylar) ma'lum qismi tijorat bilan shug'ullanib karvon bilan Afg'oniston, Hindiston, Eron va boshqa old Osiyo mamlakatlariga, Yettisuv va Sharqiy Turkiston orqali sharqqa, to Xitoygacha borganlar. Mahalliy tijoratchilar o'lkalarining taraqqiyoti yo'lida bevosita xizmat qilib, uning iktisodiy va madaniy jihatdan rivojlanib borishiga katta hissa qo'shganlar.

So'g'diyonani shartli ravishda ikki viloyatga bo'lish mumkin:

1) Zarafshon vohasining o'rta va yuqori qismlari — Samarkand viloyati, manbalarda Samarkand So'g'di deyilgan. 2) Shu laryoning quyi (Karmana va

¹Айрим тарихий асарлар Ғазнавийлар сулоласининг асосчиси Махмуд Ғазнавий бўлган дейилади. Ҳақиқатда эса бу сулолага асос солган киши Махмуднинг отаси Сабук - тегин бўлган. Чунки у 977 йилда Ғазнани олиб, Балх дарёси водийсини эгаллайди ва Сомонийлар итоатлигидан чиқиб Хуросонда мустақил давлат барпо этади. Баъзи ўрта аср манбаларида айтилишича Сабук - тегин барсхан қабиласидан Барсхон шаҳрида ёки унинг атрофларида яшовчи турклардан бўлган. У болалигида асир олинган, туркларнинг тухси қабиласини қўйини боққан. Кейин уни Моварауннахр савдогарларига сотганлар, булар эса уни Нишопур бозорида пуллаганлар.

undan keyingi) oqimlari — Buxoro viloyati (yoki Buxoro vohasi), Nurota ham shuning tarkibida bo'lgan. Albatta, bu shartli bo'linish.

So'g'diyaning markaziy shaxri Samarkand bo'lib, Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan edi. Manbalarda qayd etilishicha shahar bir necha dahalarga va mahallalarga bo'lingan. Samarkand o'z davrining ko'p nufuzli shaharlaridan hisoblangan; X asrda unda taxminan 100—110 ming kishi yashagan.

Arab geograflarining Samarqand So'g'di rabotlari va shaharlari haqidagi ma'lumotlaridan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, kishloklar zich, aholi tig'iz joylashganligini inkor qilib bo'lmasa kerak. Chunki Istaxriy, Ibn Havqal va Muqaddasiy (X – XI asr o'rtalari) Movarounnahrda bo'lib, viloyatning bir qancha shahar va qishloqlarida bo'lib, o'z ko'zlari bilan ko'rgan-bilganlarini asarlarida bayon etganlar. Bular ham xatoga yo'l qo'ygan bo'lishlari mumkin. Lekin ayrim rustaklarida kishloklarning ko'p bo'lishi, aholisining tig'izligi, shaharlarining iktisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etganligi haqidagi axborotlarga ishonmaslikka hech asos yo'q. Zarafshon daryosining o'rta okimlarida joylashgan to'rtta yirikshaharlar (Ishtixon, Kushon, Dabusiya va Robinjoi) Samarqand va Panjikentdan keyingi, o'rta darajadagi shaharlar bo'lgandir. Yuqorida Samarqand shaxrida 100 – 110 ming kishi yashaganligi haqida gap ketgan edi. Panjikent aholisi 40 ming hisoblangan edi. Ammo viloyatdagi boshqa shaharlar o'rta darajadagi shaharlar bo'lgan. O'sha asr taraqqiyotini hisobga olib, arab geograflarining axborotlariga asoslanib, X asrda, eslatilgan 4 ta shaharning har birida o'rta hisob bilan 10 ming kishidan yashagan desak, to'rt shaharda 40 ming kishi yashagan bo'lib chiqadi. Viloyatdagi qolgan 7 shahar (13 tadan) kichik shaharlar bo'lib, ularning aholisi 5—6 ming atrofida bo'lgan bo'lishi kerak; unda 7 ta shaharning umumiy aholisi ham 40 mingga yaqinlashadi; shunda Zarafshon daryosi o'rta oqimidagi barcha shaharlarida yashovchi aholining soni 230 ming bo'lgan bo'ladi. Bunga qishloq aholisi kirmaydi¹.

O'rta Osiyo bo'yicha shahar aholisi umumiy aholining 20 – 25 foizini tashkil qilganligini hisobga olib, Samarqand viloyati qishloq aholisining sonini 850

¹Ўзбекистон худудида анъанавий этнослараро жараёнлар.-Т., Янги нашр, 2011. – Б. 78.

ming mo'ljallash mumkin. Shunda bu hududda turg'un yashovchi shahar va qishloq aholisining umumiy soni 1.080 ming kishiga yaqinlashadi.

Samarqand viloyatining tog'li rayonlarida va cho'l zonalarida ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi turkiyzabon qabilalar (qarluk, chig'il, o'g'uz va boshq.) yashaganliklari haqida yukorida gapirilgan edi. Chorvador turkiy kabilalar son jihatidan kamrok bo'lgan bo'lishi mumkin. Chunki, Movarounnaxr hududiga arablar istilosidan keyin va Somoniylar davrida ko'chmanchilardan faqat islom dinini qabul qilgan qabilalar kelib, yaylovdan joy olib, yashashi mumkin bo'lgan. Bularning soni 200 ming hisoblansa, shahar va viloyatda yashagan aholining soni taxminan 1.280 ming kishi bo'ladi. Bu taxminiy hisob albatta.

Buxoro viloyati asosan Zarafshon daryosining kuyi okimlarini egallagan, IX—X asrlarda iktisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan Movarounnahr mintaqalaridan biri edi. Bu viloyatning sharqiy chegarasi Karmana shahridan boshlab, g'arbda Amudaryo sohillarigacha borgan. Nurota rayoni ham Buxoro viloyati tarkibida bo'lib kelgan.

Buxoroda «bir korxona bor edi; unda paloslar, darpardalar, yozgi kiyimlar, yostiq jildlari, funduqiy (jigarrang) joynomozlar va ust kiyimlarni xalifa uchun to'qir edilar: bitta darpardaga (butun) Buxoro xiroji sarf bo'lardi. Bag'doddan har yili alohida bir omil (amaldor, soliq yig'uvchi) kelib Buxoro xirojining evaziga shu kiyimlardan olib ketar edi deb yozgan edi, Narshaxiy. Hunarmandlarning ishini yuqori baholab, tarixchi quyidagilarni bayon etadi: «Buxoro shaxrida shunday ishga tayin kilingan ustalar bo'lar edilar; viloyatlardan savdogarlar kelib, odamlar zandoniychini (Zandonachi kishlog'ida to'qiladigan mato) olib ketganlaridek, u kiyimlardan Shom va Misrga, Rum shaharlariga olib ketar edilar. Xurosonning hech bir shaxrida bunday (mato) to'qiy olmas edilar»¹.

Buxoro IX—X asrlardagi rabot (qishloqlarni) o'z ichiga olib birmuncha kengaygan, aholisi soni ko'paygan. Shu asrlardagi Buxoroni tilga olib Istaxriy uni (Buxoroni) Movarounnaxr va Xurosonda eng ko'p aholi yashaydigan shahar, deb

¹Қаюмов А.Р. XIX – XX аср бошларида Ўзбекистон худудида этник жараёнларнинг баъзи хусусиятлари.-Т, 2005. – Б. 63.

ta'riflaydi. Afsuski, axoli sonini aniq belgilab beradigan boshqa aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. O. G. Bolshakovning taxminiy hisobiga ko'ra, Buxoroda X asrda 40 – 50 ming kishi bo'lgan. Uning atroflarida va rabotlarida yana 48 ming kishi yashagan. Demak, Buxoro va uning atroflarida yashovchi aholi soni 100 ming kishiga yaqinlashgan.

Shaharning etnik tarkibi ham bir xilda bo'lmagan. Shaharning asosiy aholisini so'g'diylar va turkiyzabon xalklar tashkil qilgan.

Ma'lumki, VIII – X asrlarda turkiy xalklar faqat vohadagi shahar va qishloqlarda emas, balki voha atroflaridagi cho'llarda ham yashar edilar. Buni Narshaxiy asarlaridan tushunib olish qiyin emas.

Ma'lumki, arablar vohaga bosib kelgan kezlarda turklar ular bilan raqiblashib, kurashib kelgan edilar, vohani batamom qo'lga kiritib olgandan so'ng ham turkiy qabilalar arab istilochilari bilan kelisha olmasdan, vohaga tez-tez xujum qilib turganlar va shuning uchun ham Buxoroga amir bo'lib tayinlangan kishining buyrug'i bilan voha atrofida devor ko'tarilgan.

Buxoro shaxrida va umuman vohada tub yerli aholidan tashqari boshqa yerlardan tijorat yo'li bilan kelib o'rtnashib qolgan kishilar ham mavjud edi. Shulardan biri «kashkashonlar» nomi bilan atalgan. «Buxoroda, — deb ta'kidlanadi Buxoro tarixida, — bir qavm bor ediki, uni kashkashon der edilar. Ular xurmatli, qadr-qiyimatli va e'tiborli odamlar bulib, Buxoro aholisi o'rtasida zo'r e'tiborga ega edilar; ular dehqonlardan bo'lmasdan (yirik mahalliy yer egalaridan bo'lmasdan demoqchi) chetdan kelgan kishilar bo'lib, aslzoda savdogar va boy odamlar edilar». Kutayba Buxoroni batamom egallagach, kashkashonlarni uy-joylarini, undagi anjomlarni arablarga qoldirib, shahardan chiqib ketishga majbur kildi.

Kashkashonlar Shaxristondan chiqib, undan tashkari yerlarda 700 ko'shk (hovli-joy) bino qiladilar. Hovli-joylar, bog'-rog'lar barpo qilib, o'z xizmatchilarini ko'chirib keltiradilar. Narshaxiy davrida (X asr birinchi yarmi) bu ko'shklarning ba'zilar vayron bo'lib, ko'p qismi shaharga qo'shilib ketgan.

Demak, IX – X asr birinchi yarimlarida Buxoro shaxrida va uning atroflarida kashkashon avlodlariga mansub kishilar ham yashagan bo‘lgan.

Narshaxiyning asarida ko‘rsatilgan 14 ta shahardan 11 tasi qishloq deb tilga olingan, bular: Hyp, Karmana, Tavovis; Iskajkat, Sharg‘, Zindana, Vardona, Afshina, Romtin (Romitan), Varaxsha. Shu bilan vaktida Narshaxiyning kitobida ularning har biri aloxida ta’riflab o‘tiladi. Tarixchining tavsifiga hamda arab geograflarining (Istaxriy, Mukaddasiy, Yakubiy) asarlarida keltirilgan «qishloqlar» IX – X asrlardagi iktisodiy va madaniy hayotning markazlari bo‘lgan, desak xato bo‘lmas. Masalan, Tavovisni (uning asli nomi Arkud) olaylik. Bunda shaxriston bo‘lib, har yili kuz fasllarida o‘n kun bozor bo‘lgan. Shu o‘n kun ichida mazkur bozorga Farg‘onadan, Chochdan (Toshkentdan) va boshqa joylardan kishilar kelganlar. «Savdogarlar va turli hojatmandlardan o‘n mingdan ortiq kishi hozir bo‘lishar va ko‘p manfaat topib kaytar edilar. Shu sababli bu qishloqning aholisi boy kishilar edilar va boyliklari dehqonchilik tufayli emas edi» deyiladi «Buxoro tarixida». Demak, Tavovis aholisi asosan savdo-sotiq tufayli boyigan, Samarqanddan Buxoroga kelishda cho‘l yerlaridan vohaga kirish yerida bo‘lib, ilk o‘rta asrlarda taraqqiy etgan shahar hisoblangan. Tadqiqotchilar Tavovisni Buxorodan keyingi yirik shahar deb ta’riflaganlar.

Haqiqatda ham asrlar davomida Buxoro vohasi daraxtzor-mevazorlari mo‘l bo‘lganligi, xushmanzarali bilan sayohatchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan. Voha ichida qishloqlar ham ko‘p bo‘lgan. Lekin ular bir xil kattalikda emas edi; 4 – 5 xonadonni tashkil qiladigan qishloqlar ham oz bo‘lmagan. Yuqorida Buxoro viloyatidagi shahar aholisining umumiy sonini taxminan 225 ming kishi belgilagan edik. Agar viloyatdagi qishloqlarda yashovchi aholi soni shahar aholisidan bir necha barobar oshiq bo‘lganligini hisobga olsak Buxoro vohasining qishloq aholisi 1 mln. ga yaqinlashadi. Bunga 225 ming shahar aholisini qo‘shib hisoblasak, vohadagi turg‘un aholi soni 1.225 ming bo‘ladi¹.

¹Қаюмов А.Р. XIX – XX аср бошларида Ўзбекистон ҳудудига этник жараёнларнинг баъзи хусусиятлари.-Т, 2005. – Б. 72.

Buxoro vohasi atrofida, cho'llarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turli guruxlar ham yashagan. Bular taxminan 100 – 150 ming bo'lsa, unda Buxoro viloyatida yashovchi barcha aholining umumiy soni 1,4 mln.ga yaqinlashadi. Shunda Zarafshon vohasida (Samarqand va Buxoro viloyati bilan) birga hisoblansa IX – X asrda 2,7 mln. aholi yashagan bo'lib chiqadi. Albatta bu raqamlar taxminiy. Vohalarda aholi soni 100—200 ming oshiq yoki kam bo'lishi ham mumkin. Bu raqamlarni keltirishdan maqsad, o'quvchida, vohada yashovchi aholi haqida umumiy tasavvur hosil qilish edi xolos.

Arab geograflari vohani ikki viloyatga: Kesh va Nasaf¹ (Naxshab) viloyatlariga bo'ladilar. Qashqadaryoning yuqori hududlari Kesh viloyati, daryoning quyi oqimlaridagi rayonlar Nasaf viloyati tarkibida bo'lgan. Kesh (Kish — hozirgi Shahrisabz) viloyati tarkibida 16-rustaq mavjudligi qayd qilinadi. Kesh rustaklari ko'p nufuzli bo'lib chorva mollarimo'l bo'lgan.

Viloyatning markaziy shaxri Kesh (hozirgi Shaxrisabz) bo'lib, uning atroflarida 9 ta qishloq tilga olinadi. Keshdan tashqari shu viloyat hududida yana Navqad–Quraysh, Subax (hozirgi G'uzor o'rnida) va Iskifagn (Isfagn) shaharlari eslatiladi, bu shaharlar G'uzor rustaqiga qarashli bo'lgan.

Nasaf viloyatining yerlari ma'lum kismi sug'orma, hosildor yerlar xisoblangan; bu yerlarda bog'-rog'lar, mevazorlar mavjud bo'lgan. Ammo, qishloq yerlarining aksariy ko'pchiligi tabiiy ravishda qor, yomg'ir bilan qoniqib hosil bergan. Bog', chorbog'lar quduq suvi bilan ham sug'orilib hosil olingan.

Qashqadaryo aholisining aksariy ko'pchiligi chorvadorlar bo'lib, yarim o'troq va yarim ko'chmanchilikda hayot kechirgan. Bu haqda aniq ma'lumot bo'lmasa ham tushunish qiyin emas. Chunki, yuqorida aytilganidek, bahorda bepoyon cho'llar, tog' oldi va tog' oralig'idagi yaylov yerlar mo'l bo'lib, chorva mollarni qishin-yozin saklab boqishga sharoit bo'lgan, albatta.

¹Қадимги Насаф (Нахшаб) ҳозирги Қарши шаҳри ҳудудида. Шулуқтапа харобалари ўрнида деб тахмин қилинади. Қарши XIV аср бошида Чигатой хони Кебек томонидан бино этилган.

IX—X asrlarda Qashqadaryo vohasining etnik tarkibi ham bir xilda bo‘lmagandir, albatta. Kesh va Naxshab viloyatlarida turkiyzabon axoli bilan bir vaktida tojiklar ham yashagan. Vodiya kisman arablar ham joylashib qolgan bo‘lishi kerak. Shu asrlarda (undan ham oldinroq) Samarqand va Buxoro viloyatlarida arablar yashaganligi yuqorida qayd qilingan edi. IX asr geografi Yaqubiy «Xurosonning (Movarounnaxrni ham Xurosonda deb tushungan) barcha shaharlarida arablar yashaydi» degan axborotini inobatga olsak, arablar Kesh va Nasaf viloyatlarining qishloqlarida ham yashaganlar.

Movarounnahrda turg‘un yashovchi aholining katta qismi Toxariston hududida ham yashagan. Toxariston Badaxshon bilan Balx oralig‘idagi yirik o‘lka. Bu o‘lka janubda Afg‘oniston, Hindiston, sharkda Tibet va Sharqiy Turkiston, shimolda Farg‘ona vodiysi, g‘arbda Qashqadaryo vohasi va So‘g‘diyona bilan bevosita etnik, iktisodiy va madaniy aloqada bo‘lib kelgan.

Shimoliy Toxariston hududida IX—X asrlarda bir necha tarixiy hududlar mavjud edi. Shulardan eng nufuzlisi Chag‘aniyon (Sag‘aniyon) hisoblangan: Bu hudud Surxondaryo vohasida joylashgan bo‘lib, markaziy shaxri ham Chag‘aniyon deb atalgan¹. Arab geograflarining asarlarida ta’kidlanishicha, Chag‘aniyon shaxri Shimoliy Toxariston o‘lkasidagi eng yirik shahar hisoblangan, ammo undagi aholi soni Termiz shaxri aholisidan oz bo‘lgan. O. G. Bolshakovning taxmin kilishicha Chag‘aniyon shaxristonida 9 – 10 ming kishi yashagan. Ammo uning rabotida qancha kishi yashaganligi aniqlanmagan.

Muqaddasiyning axborotida Chag‘aniyon viloyatida 16 ming qishloq mavjud bo‘lganligi ta’kidlanadi. Zero shunday ekan, viloyat aholisi ancha zich joylashgan bo‘lishi kerak. Agar har bir kishlokda eng kamida 50 kishidan bo‘lganda ham (so‘zsiz bu taxminiy hisob, ba’zi qishloklarda bir necha yuz kishi yashagan bo‘lishi ham mumkin). Chag‘aniyonning 16 ming kishlog‘ida 800 mingdan oshiq aholi yashagan bo‘ladi.

Shimoliy Toxaristonda boshqa bir kancha tarixiy hududlar ham mavjud bo‘lgan: Chag‘onrudning (Surxondaryo)ning yuqori oqimlarida Axarun viloyati;

¹Чаганиён (Саганиён) шаҳри ҳозирги Денов яқинида (балки унинг ўрнида) жойлашган бўлган.

Panj (Jerob) va Vaxsh (Suxrob) oralig'ida Xuttal (Xutalon) va Qabadian viloyatlari; Ko'kcha daryo vodiysida Badaxshon viloyati, Vahon daryo vodiysida Vahon viloyati; Gunt daryo vodiysida Shikinan viloyati; Vang va Yozg'ulom daryo vodiylarida Keron (Rushon va Darvoz) viloyati joylashgan bo'lgan¹.

Nomlari keltirilgan tarixiy hududlarning (Chag'aniyondan tashqari) aholi sonini aniqlash qiyin. Ammo arab geograflarining Shimoliy Toxariston xududlarida aholining zich yashaganligini, shahar va qishloqlari nihoyat ko'p bo'lganligini inobatga olib, bu mintakada turg'un yashovchi (turkiy va tojik) aholining soni 3 mln. ga yaqin desak xato bo'lmas. Mazkur xududda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy kabilalarning soni ham 300 mingga yaqin desak, Toxariston aholisining soni 3 mln. 300 mingga yetadi. Bu rakamlar va Samarqand viloyatida 1 mln 280 ming, Buxoro vohasida 2 mln. 700 ming, Qashqadaryo viloyatida 850 ming, Ushrushona va Xo'jand viloyatida 800ming, Farg'ona vohasida 2 mln. kishi yashaganligini hisobga olsak, Movarounnahrda 10 mln. 450ming, ko'pi bilan 12 mln. kishi yashagan bo'lishi mumkin.

IX – X asrlarda Xorazm shaharlari oldingi davrlarga nisbatan birmuncha kengaygan edi. Shaharlarni feodallarning kal'alari va ularga tobe bo'lgan kadivorlarning mustahkam qo'rg'onlari joylashgan rustaklar o'rab olganligi ta'kidlanadi manbalarda. Xorazmning yirik shaharlaridan biri Mizdahxon atrofida 12 mingta mustaxkamlangan hovli qo'rg'onlar mavjud bo'lgan. Shu davrlarda tevarak-atrofdagi cho'llarda ko'chmanchi o'g'uz qabilalari yashagan. Ularning tajovuzidan o'z kulbalarini, bola-chaqalarini himoya qilish maqsadida voha aholisi, xususan, feodal-zodagonlar hovlilarini baland devorlar bilan aylantirib qo'rg'on qilganlar².

Xorazm vohasining xavfsizligini ko'chmanchi chorvador qabilalardan himoya qilish uchun IX—X asrlarda boshqa choralar ham ko'rilgan. Ustyurt cho'llaridagi balandliklarda mudofaa qal'alari qurilgan. Masalan, shunday qal'alar

¹Вахондарё, Гунт, Бартанг, Ёзгулом ва Ванч-Жероб (хозирги Панж) дарёсининг юкори тармоклари. Панж эса ўз навбатида Амударёнинг энг йирик ўзанларидан бири ҳисобланади.

²Қаюмов А.Р. XIX – XX аср бошларида Ўзбекистон худудида этник жараёнларнинг баъзи хусусиятлари.-Т, 2005. – Б. 63.

birin-ketin (ma'lum masofada) Orol dengizi bilan Sariqamishgacha bo'lgan chegarada mavjud edi. Bu qal'alarda xarbiy (qo'riqchi) gornizonlar saqlangan. Qal'alarda oldindan xabar beradigan, toshdan terilgan olov yoqishga moslangan qurilma (ding) bo'lib, yov yaqinlashganda (xoh kechasi, xoh kunduzi bo'lsin) olov yoqib xabar berganlar. Shu usulda berilgan xabar uzog'i bilan bir soat ichida chegara qo'riqchilariga yetib ularni oyoqqa turg'izgan.

Xorazm vohasining qishloq va shaharlarida asosan turg'un aholi yashagan. Etnik jihatdan ular bir xilda bo'lmagan, albatta.

Beruniy yana xorazmliklar haqida gapirib, quyidagilarni yozadi: «Endi xorazmliklarga kelsak, bular, garchi Eron daraxtidan bir shox va Eron daryosidan bir tarmoq bo'lsalar ham, yil avvallarini belgilashda va ortiqcha kunlarni qasrga (qaysi oyga) qo'yishda so'g'diylarga ergashadilar».

Beruniyning yuqorida tilga olingan asarida keltirilgan axborotlardan ko'rinib turibdiki, xorazmliklarning ilk o'rta asrlardagi laxjalari so'g'd aholisining tiliga yaqin bo'lgan, lekin shu bilan birga undan birmuncha farq qilgan.

IX—X asrlarda Xorazm tilida gapiruvchi aholi bilan bir vaqtda, bu o'lkada turkiyzabon xalklar ham yashagan, albatta. Turkiy xalklarning vohaga va uning atrofidagi cho'llarga qachon kelib o'rnishganligi haqida aniq dalillarga ega emasmiz. Lekin ayrim ma'lumotlarga asoslanib, miloddan oldingi II – I asr va milodiy I—II asrlarda Xorazm vohasiga Amudaryoning shimolidagi va Orol dengizining janubidagi cho'llarga turkiyzabon kabilalarning ayrim guruxlari masalan, xun guruxlari kelib o'rnishgan desak, xato bo'lmas. Miloddan oldingi I va milodiy I—II asrlarda xun kabilalari va zodagonlari orasida siyosiy kurashlar tobora keskinlashib boradi. Bularning hammasi Xun davlatining kuchsizlanishiga va uning bir necha qismlarga bo'linib ketishiga olib keladi.

Xorazm vohasi miloddan oldingi II—I, milodiy II—III asrlarda Qang' davlati tasarrufida bo'lgan. Shu asrlarda Xorazm hududida qang'larning ayrim kabilalari kelib o'rnishgan bo'lishi kerak. Chunki, ayni shu asrlarda qang'ar qabilalarining ko'chmanchi guruxlari Sirdaryoning quyi okimlarida, Orol dengizining atroflaridagi, Kaspiy dengizining shimolidagi cho'llarda ko'chib yurar

edilar. Bu guruxlarning ma'lum qismi Xorazm hududida kolib, mahalliy aholi tarkibiga kirib, unga singib ketgan. Sariqamish ko'lining janubi-sharqida joylashgan milodiy II—III asrlarga oid Qang'a shaxri hamda Amudaryoning chap tarmoklaridan biri Qang'a daryo deb atalishi fikrimizning dalili bo'la oladi.

Beruniy Xorazmda alan va as (os) kabilalari yashaganligini yozgan edi. Bularning katta kismi milodiy I—II asrlarda Don daryosi bo'ylariga va Azov oldi cho'llariga borib joylashgan. IV—V asrlarda, xunlarning bu yerlarga kelishi bilan aslar Kavkaz tog' oldi rayonlariga borib yashaydilar.

Pecheneglar va ularga qardosh qang'ar-qang'lilarning tili turkiy til bo'lganligi shubhasizdir. Xorazmliklarning ma'lum qismining tili (asosan shahar aholisi) sharqiy eron til sistemasiga mansub bo'lganligi yuqorida ta'kidlagan edik. Demak, alanlarning hali turkiylashmagan qismining tili ham sharqiy eron til turkumidan bo'lgan. Bu til alanlarning keyingi avlodlari — osetinlarda, birmuncha o'zgargan holda hozirgacha saklanib kelmokda.

Xorazm vohasiga yaqin cho'llarga g'uzlar (o'g'uzlar) ham ko'chib borganlar. Bularning asosiy qismi VIII— X asrlarda Sirdaryoning quyi oqimlarida, Orol dengizining shimolida va uning janubiy mintakalarida yashar edilar. IX—X asrlarda o'g'uzlarning ma'lum qismi Orol dengizining janubi-g'arbiy rayonlarida ham o'rtnashib olgan edilar. Istaxriy Xorazm haqida gapirib «uning shimoliy va g'arbiy xududlari g'uzlar chegarasiga ulanib ketadi» deb yozadi. Mukaddasiy esa Xorazm vohasining shimoli-g'arbidagi rustaklardan biri bo'lgan Jitni (Git) tilga olib «Bu g'uzlar chegarasidagi mustahkamlangan rustaq, ular tomon boradigan yo'l shundan o'tib boradi»¹ deb ta'kidlagan edi. Beruniy ma'lumotlaridan aniqlanishicha g'uzlar yana ham g'arbda Balxan tog'lari va Kopetdog'ning g'arbida, tog' oldi rayonlarida yashaganlar.

¹Беруний «шаҳарларнинг узунлиги ва кенгликлари» жадвалида ғузлар жойлашган вилоятлар ва мамлакатлар қаторида Балхан шаҳри ва Ферави работини тилга олади. Қаранг: Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Қонуни Маъсудий, 5-жилд, Т., 1973, 425-бет. Балхан — Каспий денгизининг шарқий қисмида, ҳозир шу ном билан (Балхан) аталувчи тоғ этагида жойлашган қадимий афсонавий шаҳар бўлган. «Ғузлар чегарасидаги Ферави рустақи» (Беруний, кўрс, асар, 425-6.). Копетдоғнинг шимоли-ғарбий ён бағрида жойлашган Қизил арвотдан 18 км ғарбда, ҳозирги Паров қишлоғи ўрнидаги илк ўрта асрлардаги работ. Артек дарёсининг шимолидаги Дехистон шаҳрини ҳам ғуз-туркларига қарши чегара қўрғон бўлганлигини таъкидлайди.

Gʻuzlar ayrim vaqtlarda Xorazm vohasidagi shahar va qishloqlarga hujum qilib ham turganlar, albatta. Gʻuzlar hujumidan vohani himoya qilish maqsadida, ular yashaydigan chegaralarda, yuqorida aytilganidek, mustahkamlangan rustaqlar qurib, ularda doimo soqchi jangchilar saqlangan; shahar va qoʻrgʻonlar mustahkam istehkomlarga aylantirilgan. Shu xildagi chora-tadbirlar boʻlishiga qaramasdan, Xorazm podsholari doimo xushyor turib «mamlakatlarining atrofini ulardan (gʻuzlardan) himoya qilar edilar».

Gʻuzlar bilan xorazmliklar orasidagi munosabat doimo raqobatchilikdan iborat boʻlmagan, albatta. Maʼlumki gʻuzlar va boshqa koʻchmanchi xalqlarning asosiy boyligi chorva edi. Vohada yashovchi aholining chorva mahsulotlariga talabi katta boʻlgan. Boshdan ham chorvadorlar bilan oʻtroq aholi oʻrtasida savdo-sotiq ishlari muqarrar davom etib kelgan. Savdo-sotiq rivojlanishidan har ikkala tomon manfaatdor boʻlgan. Bunga qabila boshliqlari ham, Xorazm podsholari ham toʻsqinlik qilmas edilar, aksincha ular tijorat ishlarini quvvatlab kelganlar. Chunki voha aholisining asosiy boyligi turklar bilan olib borilgan savdo-sotiq va chorvadan boʻlgan.

Sirdaryoning oʻrta okimlarida Shosh va Iloq vohalari mavjud edi. Shosh Paroq (Chirchiq)¹ daryo havzasida Iloq (Ohangaron) daryo havzasida joylashgan². Arab geograflari bu viloyatlarni juda koʻrkam, bahavo, oqar suvlari moʻl, qishloqlari, ekinzor yerlari, mevazor, uzumzorlari koʻp, nufuzli viloyatlar deb taʼriflaydilar. Manbalarda Shosh viloyatida 30 ga yaqin Iloqda 13 yirik shaharlar³ mavjud boʻlgan deyiladi. Ammo, shahar, qishloq aholisi til jihatidan qaysi xalqqa (turk, tojik) mansubligi haqida manbalarda aniq maʼlumot yoʻq.

¹Чирчик дарёси араб-форс тилли манбаларда турлича номлан-ган: «Худуд ал-олам»да бу дарё Парак (қаранг: МИКК, т. I, с. 38), Истахрийда — Барак (қаранг: МИКК, т. I, с. 29) дейилган. Ибн Ҳавқал бу дарёни Турк деб номлайди. (Қаранг: BGA, II, с. 388).

²Мўғулларгача бўлган даврлардаги араб-форс тилида ёзилган манбаларда Оҳангарон дарёси «Илоқ дарё» ва шу дарёдан сув олиб суғориладиган барча ерлар (воҳа) — Илоқ деб аталган. «Илоқ» сўзи темирчи-хунарманд маъносини англатган. Дарёнинг ҳозирги номи — Оҳангарон сўзи тожик тилида худди шу маънони билдиради. Қаранг: Андреев М. С. Местность Туркестана интересные в археологическом отношении. Среднеазиатский вестник. Ташкент, 1896, с. 16 - 28.

³Араб географлари Шош шаҳарларининг сонини ҳар хил кўрсатадилар: Истахрий (Қаранг: МИКК, с. 19, 28), Шошда 25, шу асарнинг форс тилидаги таржимасида 27 та, Ибн Ҳавқал ҳам (Қаранг: BGA, 389-6.) шунча шаҳар бўлганлигини маълум қилади. Ҳар иккала муаллиф Илоқда 13 шаҳар мавжудлигини айтади. Муқаддасий Шошда 34 та, Илоқда — 17 шаҳар бўлганлигини таъкидлайди.

Lekin Sirdaryoning oʻrta okimlarida kadimdan xalqlarni (qangʻar-qangʻlilar, xunlar, usunlar va boshq.) turkiy xalqlar, etnik guruxlar yashab kelganligini eʼtiborga olinsa Shosh va Iloq vohalaridagi aholining katta qismi turkiyzabon boʻlgan desak xato boʻlmas. Soʻzsiz Chirchiq va Iloq daryo vodiylarida soʻgʻdiylar ham yashagan.

Chirchiq (Parak, Faroq) daryosi haqida gap ketganda uning bir oʻzani (tarmogʻi) Biskamdan (Pskom), ikkinchi tarmogʻi Chitgil togʻlaridan boshlanadi, ammo ularning eng yuqori qismi Xazlajiya¹ turklarining viloyat chegaralaridan oqib keladi va har ikkala oʻzan birlashib Turk daryosini tashkil etganligi aytiladi. «Hudud al-olam» axborotlarida Paroq (Chirchiq daryosi) Qarluq togʻidan boshlanadi, deyilgan. Keltirilgan bu kamchilik maʼlumotlarga asoslanib aytish mumkinki Qurama–Chotqol–Pskom tizma togʻlari (umuman Tangritogʻining shimoliy va janubiy hududlarida) turkiyzabon qabilalarning (qarluq va chigʻil guruxlarining) maʼlum qismi joylashgan boʻlgan.

IX—X asrlarda Keles choʻlida, Ohangaron va Chirchiq vodiylarida, Chatqol va Ugam togʻ yon bagʻrlarida oʻgʻuzlarning ayrim guruxlari va ular bilan yonma-yon qarluq qabilasining guruxlari ham yashaganligi haqida yuqorida gapirilgan edi. Bu etnik guruxlar islom dinini qabul qilganidan keyin Somoniylar ijozati bilan vodiya kirib kelgan boʻlishlari kerak. Oʻgʻuz va qarluq guruxlarining vodiya kelishi bilan bu yerdagi turkiyzabon aholi son jixatdan birmuncha koʻpaydi. Qarluqlarning baʼzi qismlari Toshkent vohasiga VIII asr boshlaridayoq kelgan. Ammo qarluqlarning bu kismalari allaqachon oʻtroqlashib, Shosh vohasidagi turkiyzabon aholining qadimgi qatlamlari bilan aralashib ketgan edilar. IX va X asr oʻrtalarida, oʻgʻuzlar bilan bir vaktlarda kelgan guruxlari islom dinini kabul qilgan boʻlsalar hamki, oʻzlarining etnik xususiyatlarini saqlab kelmokda edilar.

¹Хазлажия турклари деб қарлуқларни назарда тутган бўлиши керак Ибн Ҳавқал. Араб манбаларида қарлуқларни кўпинча «Хара-уж», «Харулуж» тарзида берилган. Хазлаж шу атамани бир шакли бўлиши керак. Агар шундоқ бўлган тақдирда Ибн-Ҳавқал ва «Худуд ал-олам» маълумотлари бир-бирини тўлдиради ва бундан Чирчиқ дарёси ирмоғидан бошланган тоғ қарлуқ номи билан аталишига шубҳа қолмайди.

Qishloq aholisi asosan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Shosh vohasi xo'jaligida chorvachilik ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shahar aholisi va yirik qishloq aholisida hunarmandchilik katta o'rin olgan.

Shosh va Iloq vohalarida qadimdan hunarmandchilik birmuncha rivojlangan edi. O'rta asrlar davomida hunarmandchilikning turli sohalari (kulolchilik, temirchilik, zargarlik va boshq.) keng taraqqiy etgan. Hunarmandchilikka kerakli xomashyolarning ko'pchiligi Shosh va Iloq vohalarining o'zida mavjud bo'lgan.

Ipak yo'lining tarmoqlari Toshkent va Iloq vohalaridan o'tgan. Bu yo'l orqali mahalliy aholi sharqda Xitoy bilan, shimoli-g'arbda — Sirdaryoning quyi oqimlari, Orol dengizi va Volga bo'ylaridagi xalqlar bilan, g'arbda Movarounnaxr orqali Afg'oniston, Hindiston, Eron va Old Osiyodagi barcha mamlakatlar va xalqlar bilan doimiy aloqada bo'lganlar. Isfijob viloyati Toshkent viloyatining shimolida Bodom daryo vodiysida Isfijob (Aspijob, Sapijob) shaxri va viloyati mavjud edi. Viloyat xududi juda katta bo'lib, unga Aris-Bodom daryo havzasidan tashqari g'arbda Sirdaryo, shimoli-sharqda Taraz (hozirgi Talas) daryosigacha bo'lgan tog'li va cho'l hududlar kirgan. Viloyatda o'ndan ortiq shahar va bir kancha qishloqlar, rabot (arab ribot)lar mavjud bo'lganligi manbalarda qayd etiladi¹.

Taroz (Tiroz) ham Isfijob viloyatining yirik shaharlaridan biri edi. Bu shahar Talas vodiysidagi eng kadimgi shaharlardan bo'lib, uni dastavval Turk xoqonligini saroyiga elchi bo'lib kelgan Zemarx eslab o'tgan. VII asrda Xitoy sayyohi Syuan Szyan bu shahardan o'tib, uni yirik shahar deb ta'riflaydi.

¹Масъудий «Мурудж аз-ахоб». С. Волин таржимаси. Қаранг: Сведения источников IX-XVI вв. О долине реки Талас и смежных арабских районов, ТИИАЭ АН КазССР, Алма-Ата, 1960, С. 79. Мукаддасий асарида ҳам Мовароуннахр аҳолиси билан кўчманчи турклар ўртасидаги тижорат ишларига алоҳида аҳамият берилган. (Қаранг: Волин С. Кўрс, асар, 80–83-66.). Унинг ахборотиға биноан Шошдан турклар диёрига юкори сифатли эгар, садоқ (камон ўқлари солиш учун) чодир, пахта, қайчи ва бошқа хунармандчилик буюмлари сотувға олиб борилган. Самарқандликлар парча, шойи, тикилган кийим, ёнғоқ ва бошқ.; Фарғоналиклар ва исфижобликлар оқ мато, қурол-аслаҳа, жумладан килич ва бошқа товарлар олиб боришган. Мукаддасийнинг ахборотларидан кўриниб турибдики, ўша даврда ўлкаларда сиёсий вазият қандай бўлишиға қарамасдан, тижорат ишлари муқаррар, қанда қилинмасдан олиб борилган, бундан ўтрок аҳоли ҳам, кўчманчи қабилалар ҳам манфаатдор эдилар.

Taroz musulmonlar va ko'chmanchi turklar o'rtasidagi savdo va madaniy alokalar olib boradigan chegara shahar hisoblangan. Ko'chmanchi turkiy xalqlarning musulmon dinini kabul qilish borasida ham bu shaharning ahamiyati katta bo'lgan. Shahar aholisi asosan turkiylar bo'lib, bu yerda So'g'diyonadan kelib o'rtnashib qolgan kishilar (so'g'daklar) ham yashaganlar. Shaharning janubida xitoyliklar turg'un yashayotgan joy ham mavjud bo'lgan.

Yangikent Movarounnaxrni, Shoshni, Xorazmni Volga bo'ylari bilan bog'lovchi katta savdo yo'lida joylashgan edi. Bu shaharga har yerlardan keladigan karvon qo'nib o'tgan. Sirdaryoning kuyi okimlariga Xo'jand va Shosh savdogarlari kemaga tushib ham kelganlar. Tovarlarini bozorlarga pullab qaytganlar. Sirdaryo soxillaridagi shaharlarga ko'pincha Shosh (Toshkent) savdogarlari qatnaganlar. Ular bu yerlarga g'alla, don (bug'doy, jo'xori va boshq.), meva, hunarmandchilik buyumlari olib kelib tovar ayirboshlaganlar va bu yerlardan (asosan o'g'uzlardan) tuya, kumush va boshqa tovarlar olib qaytganlar. Shunday kilib Sirdaryo sohillaridagi shahar va ko'chmanchi ovullar Isfijob, Shosh va Farg'ona viloyatlari bilan doimiy iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelganlar.

Yuqorida qayd qilganimizdek, Talas vodiysida, Taroz shaxridan tashkari yana bir qancha shahar va qishloqlar mavjud bo'lib, bularda turg'un yashovchi aholining soni oz bo'lmagan, albatta. Shuni ham ukdirib o'tish lozimki, bu yerda joylashgan shaharlar aholisining aksariy ko'pchiligi IX—X asrlar davomida musulmon dinini qabul kilib o'troklashib qolgan turkiy xalqlar (turkesh, arg'u, tuxsi, qarluq, chigil, xalach va boshq.) tashkil qilgan.

Talas vohasidagi shaharlardan biri Chigil (jikil) deb atalgan. Bu shaxar Taroz yaqinida joylashgan bo'lgan. Shahar qarluqlarning chigil urug'ining nomini olgan. Bu shahar chigillarning o'trokdashishi jarayonida vujudga kelgan bo'lib, aholisining asosiy kismi ham chigillar edilar. Bularning bir kismi ko'chmanchi chorvadorlar bo'lib, Taroz (Toroz) atrofida yashaganlar. Chigil shaxridan sharkda Barsaxon (kichik Barsaxon) shaxri bo'lganligi manbalarda tilga olinadi. Bu shaharda ham o'troq aholi, asosan musulmonlikni qabul qilgan turkiy aholi va turklashgan so'g'daklar yashaganlar.

Barsaxon va umuman Issiqko‘l atroflaridagi shaharlarda turg‘un yashovchi aholining aksariy ko‘pchiligi IX—X asrlarda turkiy xalqlar bo‘lganligi ehtimoldan xoli emas. Chunki Chu va Ili daryo vodiylari va Issiqko‘l sohillari bir necha asrlar davomida turkiyzabon xalqlar yurti bo‘lgan. Asrlar davomida ularning ma‘lum qismi o‘troqlashib shahar va qishloqlarda turg‘un yashab, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Turkiy axoli yashaydigan shahar va qishloqlarning aksariy ko‘pchiligi Buyuk Ipak yo‘lida joylashganligi tufayli turkiyzabon aholining ayrimlari tijorat bilan ham shug‘ullangan bo‘lishlari kerak. Barsaxanda so‘g‘dak va uyg‘ur oilalari ham yashagan albatta.

O‘zbek elatining shakllanishi jarayonida Sharqiy Turkistonning g‘arbiy qismida yashovchi turkiy aholi ham bevosita ishtirok etgan.

Turk xoqonliklari (VI—VIII), Turkesh xoqonligi (VIII asr oxirlari IX asr o‘rtalarida) va qarluklar hokimiyati davrlarida Sharkiy Turkistonning g‘arbiy qismida qarluq, xalach, yag‘mo etnik guruxlari yashagan. Bularning ma‘lum kismi o‘troqdashib, shahar va qishloq aholisiga aralashib ketgan, albatta. Tilga olingan etnik guruxlarning katta kismi yarim ko‘chmanchilikda va yarim o‘troklikda hayot kechirib, chorvachilik bilan bir vaktida dehqonchilik ham qilganlar.

Yuqorida keltirilgan barcha tarixiy materiallarga asoslanib yana bir marotaba ta’kidlab o‘tmoqchimizki, IX—X asrlarda Movarounnaxr, Xorazm o‘lkalarida va ularga tutash mintaqalardagi (Sirdaryo sohillarida, Shoshda) aholining aksariy ko‘pchiligi turg‘unyashovchi aholi bo‘lib, bular o‘zbek va tojik xalqlarining ajdodlari edilar. Ularning, son jihatidan, birini ko‘p — ikkinchisini kam bo‘lgan deyishga hech qanday asos yo‘q. O‘zbek va tojik ajdodlari doimo yonma-yon, ko‘p hollarda aralash yashab, bir-birlari bilan ahil, qavm-qarindoshlik rishtasi bilan bog‘lanib, iktisodiy va madaniy aloqada bo‘lib kelganliklari natijasida moddiy va ma’naviy hayotlarida umumiy o‘xshashliklar hosil bo‘lgan.

Movarounnaxr, Xorazm va Shosh vohalari atroflaridagi tog‘ oldi mintaqalarda va cho‘l zonalarda yashagan aholining aksariy qismi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turkiy etnik guruhlar bo‘lib, bular ham vohalarda yashovchi turg‘un aholi bilan iktisodiy va madaniy aloqada bo‘lib kelganlar. Ko‘chmanchi va

yarim ko'chmanchi etnik guruxlarning ma'lum kismi (asosan kashshoklanganlari) o'troklashib turg'un aholini son jihatidan ko'payib borishiga hissa qo'shganlar.

Shuni ham uqtirib o'tish joizki, Sirdaryoning shimoliy mintaqalarida xalqlar Movarounnaxr, Xorazm aholisi bilan doimiy etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelishlari tufayli o'zbek ajdodlarining elat bo'lib shakllanishiga puxta zamin tayyorlagan edilar.

II – Bob. XI – XII asrlarda Markaziy Osiyo xududlarida siyosiy va madaniy hayot.

1. X-XII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqalarida siyosiy ahvol.

IX asrning ikkinchi yarmi X asrda Somoniylar davlati Oʻrta Osiyo mintaqalarining asosiy hududlarida hukmronlik qilar edi. 875 - yilda Abbosiylar xalifi al - Mutamid Nasr ibn Axmad Movarounnaxr hokimi qilib tayinlangach, bu oʻlkada iqtisodiy va madaniy rivojlanish birmuncha avj oldi. Ismoil ibn Ahmad davrida (892—907 yy.) Somoniylar davlati markazlashgan kuchli davlatga aylanib, unda iqtisod, madaniyat, ilm - fan yana ham taraqqiy etgan. Ammo, X asrning ikkinchi yarimlarida ichki ziddiyatlar koʻpayib somoniylar hokimiyati kuchsizlanib boradi. Unga tobe boʻlgan viloyatlarda (xususan Xurosonda) somoniylar hokimiyatiga qarshi koʻtarilgan isyonlar, vorislar oʻrtasida taxt uchun betinim kurashlar, Somoniylar davlatini zaiflashishiga olib keladi. Bunday vaziyatdan qarluq xoqonlari foydalanadilar.

Qoraxon xoqonlaridan biri Xarun ibn Sulaymon (u yana Bugʻraxon at - Turki unvoni bilan ham maʼlum), 990 yili somoniylarga qarshi harbiy yurish kilib Fargʻona, Isfijob viloyatlarini egallaydi. 992—993 yillari Bugʻraxon Samarqand va Buxoroni ham zabt etadi. Ammo, kasalligi tufayli urushni davom ettirolmasdan Qashgʻarga qaytishida, yoʻlda Qoʻchqorboshi degan joyda 993 yil vafot etadi va shu yerning oʻzida dafn etiladi.

Shunday qilib, XI asr boshlarida Qoraxonlar davlati Amudaryoning yuqori va oʻrta okimlaridan to Yettisuv, sharkda esa Torim daryosigacha boʻlgan katta hududga egalik qiladilar. Amudaryo qoraxonlar bilan gʻaznaviylar oʻrtasidagi chegara boʻlib qoladi¹.

Qoraxonlar xukmronligi Movarounnahrda qariyb 200 yil davom etadi. Ammo sobiq somoniylar yerini egallaguncha Qoraxonlar davlatining xon - beklari vaqtincha birlashadilar va buning natijasida markazlashgan yirik qarluq — Qoraxonlar davlatini tashkil etishga erishadilar. 1041 yilda Qoraxonlar davlati

¹Қаюмов А.Р. XIX – XX аср бошларида Ўзбекистон худудида этник жараёнларнинг баъзи хусусиятлари.-Т, 2005. – Б. 74.

ikkiga: g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linib ketdi. G'arbiy kismi Movarounnahrda to Farg'ona vodiysining g'arbiy rayonlarigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Buning markazi Buxoro, keyinchalik Samarqand bo'lgan. Sharqiy qismiga Yettisuv, Qoshg'ar, Tarozi, Isfijob (hozirgi Chimkent viloyati), Shosh (Toshkent vohasi) va sharqiy Farg'ona kirgan. Bu qismining markazi Balasag'unda, madaniy markazi esa Qashg'arda bo'lgan.

XII asr boshlariga kelib, Qoraxonlar davlati tobora o'sib borayotgan ko'chmanchi chorvador - feodallarning talablarini qoniktirmay qolgan edi. Yildan - yilga ko'payib borayotgan chorva soni uchun va boyib borayotgan patriarxal feodal oilalar, urug' va kabila boshliklariga suvli va sero't yaylovlar kerak edi. Ammo Balasag'un xoni uchun Yettisuv yerlari hisobidan bu talablarni qondirishi qiyin bo'lgan. Chunki, bu yerlar qachonlar yirik feodallar, xonzodalar va boshqa yuqori tabaqadagi kishilar o'rtasida bo'lingan edi: bu yerlarda ularning katta - katta qo'riqxonalari mavjud bo'lgan. Shuning uchun ham qoraxonlar xoqoni feodallar talabini davlat chegarasidagi yerlar hisobiga qondirishi qiyin edi. Qo'shni yerlarga harbiy yurish qilib yaylov yerni kengaytirish xoqonlar (o'zaro kurashlar, nizolar, davlatning tarqoqligi natijasida va boshqalar) o'zlik qilganlar. Bundan tashqari Balasag'un xoqoni Yettisuv chegarasiga bostirib kelayotgan qorakidanlar¹ga qarshi kurashni ham uyushtira olmadi. Bularning hammasi ko'chmanchi chorvador qabilalarni sharqiy qoraxonlar xoqoniga qarshi kurashiga sabab bo'lgan.

XII asr oxirlarida qoraxitoylar juda katta hududda (Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Movarounnaxr) o'z hukmronliklarini o'rnatadilar. Ammo ularga bevosita karashli yerlar Yettisuvning janubidagi viloyatlar va G'ulja bo'lgan. Yettisuvning bir kismi, Ila daryosining shimolida yangidan tashkil topgan Qarluklar davlatiga qarar edi, bularning markazi Qiyaliq shahrida bo'lgan. Ila daryosining yuqori qismlarini qarluklar bilan ittifoqdosh bo'lib kelgan qang'li kabilalari egallaganlar. Qang'lilar ham XII asr oxiri XIII asr boshlarida alohida xonlik tashkil qilgan bo'lib, uning markazi Olmaliq shahrida bo'lgan. Qoraxitoylar

¹Qorakidanlar usha davrlarda qaysi tilga mansub xalq bulganligi haligacha uz echimini topgan emas. Bir guroх tadqiqotchilar qoraxitoylarni mugul tilli xalq bulgan desalar, ikkinchi birlari ularni tuncus tilli xalq дейишadi.

Yettisuv va Movarounnahrni egallaganlaridan so'ng Qoraxonlar davlatiga mansub amaldorlarni o'z vazifalaridan chetlashtirmaganlar. Xoqon va xonlarni o'z o'rinlarida qoldirib, ular orqali mamlakatni idora qilganlar. Aholiga katta soliq solib gurxonlar, qoraxonlardan bu soliqni o'z vaqtida yig'ib berishni talab qilib va shu tarzda ularni o'z itoatlarida ushlab turar edi.

Shu davrlarda Xorazm davlati ham kuchayib, Xorazmshoxlar qoraxitoylarga, ularga qaram bo'lgan qoraxonlarga qarashli yerlarga harbiy yurishlar qiladilar. Xorazmshoxlar Buxoro va Samarqand yerlariga bir necha bor qo'shin bilan bostirib kelgan edilar. Qoraxitoy imperiyasi ichida ham nizolar oz emas edi. Bularning hammasi qoraxitoy davlatining yemirilishiga olib keldi. Mazkur imperiyaning kuchsizlanib borishidan foydalanib, qoraxonlar xonadoniga tegishli oxirgi xonlar qoraxitoylar tobeligidan XIII asr boshida ozod bo'lgan edilar. Ammo 1212 yili Xorazmshoh Muhammad Ala addin Samarqandni egallaydi va Qoraxonlarning g'arbiy qismini oxirgi xoni — Usmonni katl qiladi. Shu bilan g'arbiy qoraxonlar sulolasi tugatiladi.

Sharqiy va G'arbiy Qoraxonlar davlati yemirilganligi bilan ularning hududlarida ayrim kichik davlatlar tashkil bo'lib, bu davlatlar, XIII asr o'rtalariga qalar sakdanib qolgan edi. Bunga misol tariqasida yuqorida eslab o'tilgan, Ila daryosi sohillarida vujudga kelgan Qarluq davlatini ko'rsatish mumkin. Uning xoni Qarluq qoraxonlar an'analarining davomi kilib, Arslonxon unvoni bilan davlatni boshkargan.

O'zgan mulki kichik davlat sifatida XIII asr 60— 70 - yillarigacha saklanib qolgan bo'lishi kerak. Shu asrning o'rtalarida mo'g'ullarning ulug'xoni Munke (1251— 1259) O'zgan davlati va Farg'onani Arslonxon qarluqning o'g'liga (mo'g'ullarga qilgan xizmati evaziga) in'om qilgan. O'zgan davlatining shundan keyingi tarixi aniq emas¹.

G'aznaviylar davlatining asoschisi turk elatidan bo'lmish Alp - Tegin edi. U somoniylar xizmatida bo'lib Toxaristonda joylashgan harbiy kuchlarga qo'mondonlik qilgan, somoniylar hokimiyati bilan kelisholmasdan, Alp - Tegin

¹Shamsutdinov R., Karimov SH. Vatan tarixi. K. 1/ - T.: "Sharq", 2016. – B. 95.

ularga karshi isyon ko'taradi va qo'l ostidagi qo'shinlar bilan chekinib, 963 yil G'azna shahrini va viloyatini egallaydi. Mazkur hududda u G'azna davlatiga asos soladi (bu davlat tarixda G'aznaviylar davlati deb nomlanadi). Shu yilning o'zida Alp-Tegin Bust viloyati va qisman Qobul viloyatiga tegishli yerlarni ham egallaydi.

Alp-Tegin o'limidan keyin (963 yil) to'rt yil davomida G'aznada, birin-ketin, bir necha turk harbiy sarkardalar hukumronlik qilgan. 977 yil hokimiyat Sabuk-Tegin qo'lga o'tadi va shu yili u o'zini G'azna amiri deb e'lon qilgan. Sabuk-Tegin davrida G'aznaviylar davlati bir muncha kuchayadi. U bosqinchilik bilan boyish yo'lga o'tib, bir necha marotaba qo'shni Hindiston hududiga harbiy yurish qiladi. Sabuk-Teginning bosqinchilik siyosatini uning o'g'li Mahmud ham davom ettirgan. Maxmud Hindiston yurishlari bilan bir vaqtda somoniylarga qarashli bir qancha viloyatlarni ham bosib olgan.

999 yil qoraxonlar Somoniylar davlatini yemirib, Amudaryogacha bo'lgan hududlarni bosib olgach, Mahmud esa somoniylarga qarashli shu daryoning janubidagi viloyatlarni o'ziga qo'shib oladi. Mahmud davrida (998—1030) g'aznaviylar juda katta hududga egalik qiladilar. Ular janubda shimoliy va shimoli-g'arbiy Hindistonga, g'arbda Xurosonga, shimolda Amudaryoning chap sohillaridagi viloyatlar, jumladan Xorazm o'lkasigacha bo'lgan hududlarga o'z hokimiyatlarini o'rnatgan edilar. Ammo G'aznaviylar davlatining hokimiyati uncha uzoqqa cho'zilmaydi¹.

XI asrning o'rtalarida Xurosonda g'aznaviylar bilan raqobatlasha oladiganlar saljuqlar bo'lgan. Bularning ajdodlari aslida Sirdaryoning quyi okimlarida ko'chib yurgan o'g'uz turklaridan edi. Bu sulolaning vujudga kelishi Saljuq nomi bilan bog'liq. Maxmud Qoshg'ariy Saljuq — shu hozirgi sultonlar (ya'ni Mahmud Qoshg'ariy zamonida mavjud bo'lgan saljuklar sultonlari) «Bobosining ismi» deb yozgan edi.

¹Shamsutdinov R., Karimov SH. Vatan tarixi. K. 1/ - T.: "Sharq", 2016. – B. 95.

Saljuq ham otasining yo‘lini tutib, Yabg‘u¹ bilan kelishmay qoladi. Oqibatda musulmon dinini qabul qilib, o‘zining yaqinlari bilan musulmonlar viloyatiga, ya’ni Jend shaxriga ko‘chib keladi. Bu shaharga o‘rnashib, u hali musulmon dinini qabul qilmagan o‘g‘uzlar bilan kurashib, bu yerdagi Yabg‘uning soliq yig‘adigan vakilini haydab, musulmonlarni boj-xirojdan ozod qiladi. Saljuq uzoq umr ko‘rib, 107 yoshda vafot qiladi.

Saljuqdan uch o‘g‘il qoladi²: Arslon, Mikoil va Muso. Mikoil dinsizlar bilan olib borilgan kurashlarda halok bo‘ladi. Uning o‘limidan keyin o‘g‘illari Tug‘rulbek, Muhammad, Chog‘ibek, Dovud va amakilari Muso Yabg‘u Kalon 985—986 yili somoniylar hududiga, Nurota tog‘lariga ko‘chib kelib o‘rnashadilar. Bu yerlarda yashovchi saljuklarning chorvalari juda ko‘p bo‘lib, ular uchun keng yaylovlar kerak bo‘lib qolgan edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak (balki Movarounnahr qoraxonlari bilan kelisholmagan hamdirlar) Saljuq turkmanlari g‘aznaviylar amiri Mahmudning oldiga borib, undan Jayxunni (Amudaryoni) kechib o‘tib, Xuroson hududida Saljuq turkmanlaridan 4000 oilani joylashtirishni iltimos qiladilar. Mahmudning ruxsati bilan ular shimoliy Xurosonni, ya’ni Zaraxs, Faravi (hozirgi Qizil-Arvat) Abivard yaqinidagi cho‘llarga borib o‘rnashadilar. Bolxon va Dexiston tomon siljib ketgan turkmanlar shu vaqtlardan (1025—1030) boshlab Xurosonning sharqiy mintaqalarini xavf ostida qoldirib, muqarrar dag‘dag‘aga solib turar edilar. Eronning Kirmon va Isfaxon viloyatlariga chekinib ketgan turkmanlar bosqinchilik yo‘liga o‘tib, bir necha yillar davomida Mesopotamiya, Kurdiston va hatto Armaniston hududlarigacha borganlar.

Dandanakon jangidan keyin Xurosonda g‘aznaviylar hukumronligi tugatiladi. G‘arbiy Osiyoda yangi davlat Saljuklar davlati vujudga keldi. Bu

¹Ябғу бу ерда киши номи ёки тахаллуси ўрнида тилга олинган. Аслида Ябғу — ўғуз, қарлуқ ва бошқа йирик қабила иттифокларининг ёки давлат бошлиқларининг (хукмронларининг) унвони.

²Бошқа манбаларда айтилишича Салжукнинг беш ўғли бўлган, булар: Исроил (ёки Арслон), Микоил, Мусо йабғу, Юсуф ва Йўнус. Қаранг: Садр ад – дин Али ал-Хусайни. Кўрсатилган асар, 172-бет, 10-илова.

davlatning taxtiga Saljuqning nabirasi (Mikoilning o'g'li) To'g'rulbek¹ ko'tariladi (1038—1063).

Saljuqiylar Xuroson, Gurgan, Dexiston va Xorazmni batamom qo'lga kiritib, XI asrning 40-yillari Eron, Afg'oniston, Iroq, Kavkaz orti va Kichik Osiyoga harbiy yurish uyushtirdilar. Alp-Arslon (1063—1072) va Malikshoh (1072—1092)lar davrida saljuqiylar davlatining eng yuksalgan davri bo'lgan. Shu yillar ichida ular Xorazm va Afg'onistonning g'arbiy qismini g'aznaviylardan tortib oladilar, G'arbiy Qoraxonlar davlati saljuqiylar hokimiyatini tan olib, ularga qaram bo'ladi. Kavkazda, Kichik Osiyoda ham bir qancha mamlakatlar saljuqiylarga tobe bo'ladilar. Buyuk Saljuqiylar imperiyasi tashkil topadi.

1141 yili Katvan cho'lida qoraxitoylar bilan bo'lgan jangda Sanjar qo'shinlari yengilib, Movarounnaxrni qo'ldan beradilar. Sultonning obro'yi va mavkei ham ancha pasaygan edi. Viloyatlarda saljuqiylar qaramligidan holi bo'lish kuchayadi. Xorazmda, Hirotda, G'urda va boshka o'lkalarda birin-ketin isyon ko'tariladi. Sulton Sanjar bu isyonlarni beshafqat bostira olgan bo'lsa hamki, ammo saljuklar davlatida siyosiy tanglik tobora oshib borib, XII asrning ikkinchi yarmida Saljuq imperiyasining sharqiy (Xuroson) qismida ham yemirilish boshlandi.

Mamuniylar hokimiyati uzoqqa bormagan. 1017 yili Maxmud G'aznaviy Xurosonni egallagach Xorazmni qo'shib oladi va shundan keyin mamuniylar sulolasi tugallanadi. Xorazmni bir necha yillar (1017—1040) davomida G'aznaviylar tomonidan tayinlangan noiblar boshqargan. 1041 yil hokimiyat o'g'uzlarning Jend shaxridagi yobg'usi Shoh Malik ibn Ali qo'liga o'tadi. Ammo o'sha yilning o'zida Shoh Malik saljuqlar tomonidan o'ldiriladi. Saljuklar hukmronligi o'rnatiladi va ularning hokimiyati bu yerda to XI asrning 40 yillarigacha davom qilib keladi.

¹Туғрулбек 1037 й. Марв шахрини олганда Довуд номи билан 1038 й. Нишопурни олганда Туғрул номи билан ва Шоханшоҳ унвони билан пул (танга) зарб этган. Кейинчалик бу унвон арабча султон сўзи билан ўзгартирилган. Салжукийлар сулоласининг барча подшолари шу унвон (султон) билан улуғланган.

Saljuqlar Xorazmga o'z noiblarini tayinlab ular orqali bu o'lkani boshqarib kelganlar. 1077 yili, Anush-Tegin¹ Turk Xorazmga, saljuklar tomonidan noib qilib tayinlangan. Ammo u bu o'lkani mustaqil boshqarishga ulgurmagan. Chunki shu davrlarda Xorazmni saljuklar nazorati ostida, Xorazmshoh Ekin-chi ibn Qo'chqor boshqarar edi. 1097 yili Ekinchi qo'zg'olon ko'targan saljuqiy amirlar tomonidan o'ldiriladi. Shu yili Anush-Tegin ham vafot qiladi. Xorazm noibligiga Anush-Teginning o'g'li Qutb ad-Din Muhammad tayinlanadi. Xorazmshoh Anush-Teginlar davlatining tarixi ayni shu Qutb ad-Din Muxammaddan boshlangan.

XI asr oxirlarida XII asr o'rtalarida Movarounnahrda ham vaziyat keskinlashib borayotgan edi. Ma'lumki, 1089 yili Movarounnahr saljuklar sultoni Malikshoh tomonidan bosib olingan. G'arbiy qoraxonlar unga qaram bo'lib qolgan edilar.

¹ Ануш-Тегин аслида ўғузларнинг бекдили уруғидан бўлган. У болалигидаёқ гарчистонлик (Мурғоб дарёсининг юқори оқимлари-даги вилоят) бир кишининг кули эканлигида, уни салжукийлар амирлигидан бири — Билга-Тегин (унинг тўлиқ оти Иззад-дин Унар билга Тегин) сотиб олган. Билга-Тегиндан Ануш-Тегин салжукий-лар подшоҳи Маликшоҳ қароргоҳига олинган; бу ердан у сидқидилдан хизмат қилиб юқори мансабларга қўтарилиб келган ва нихоят 1077 й. Хоразм ўлкасига салжукдарнинг вакили қилиб тайинланади. Ануш-Тегиннинг лақаби Гарча ёки Гарчи бўлган. У Гарчистон фуқаросидан сотиб олинганлиги учун шу лақаб билан аталган.

2. X - XII asrlarda movarounnahr va unga tutash mintaqalarda etno-madaniy jarayon.

Etnoslarning o'zaro yaqinlashish jarayonida ma'lum bir etnik guruh yoki komponent yetakchi rol o'ynaydi; boshqa etnik guruxlar shu yetakchi guruh atrofida bo'lib, u bilan til va madaniyat jihatidan yaqinlashib, jipslashib boradi. Ammo etnoslarning yaqinlashishi, ularning jipslashishi hamma vaqt ham muvaffaqiyatli bo'lavermaydi. Mamlakatda sodir bo'lgan siyosiy vaziyatlar, ichki nizolar, o'zaro kurashlar etnoslarni bir - birlari bilan yaqinlashishi, jipslashish (konsolidatsiya) jarayonini nihoyasiga yetmasdan tarqalib ketish hollari ham tarixda oz bo'lmagan.

Etnik jarayon nihoyasiga yetganda, aniq bir hududda joylashgan etnoslar ma'lum taraqqiyot pog'onalarini (iqtisodiy va madaniy jihatdan yaqinlashish, birlashish) o'tib bir - birlari bilan qorishib, bir tilda (lahjalari bilan farq kilsalar hamki) gaplashuvchi, umumiy ong sezimiga va elat nomiga (etnonimiga) ega bo'lishi lozim edi. So'zsiz, nazariy jihatdan shundoq bo'lishi shart. Lekin amalda etnik jarayonda shakllanayotgan elatning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo'lishi mumkin.

Etnik jarayonning barcha tomonlarini (yaqinlashish, jipslashish va qorishib ketish) hisobga olib, mazkur ishda o'zbek ajdodlarini etnik va madaniy jarayonidagi ba'zi masalalarga e'tibor berib o'tish lozim bo'ladi.

IX—X asrlarda Markaziy Osiyoda yashovchi aholining aksariy ko'pchiligi turkiyzabon xalqlar bo'lgan. Ularning bir qismi qadim zamonlardan buyon turg'un yashab kelgan bo'lsa, ikkinchi qismi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilikda hayot kechirib, asosan chorvachilik bilan shug'ullangan.

Turkiyzabon aholi, yuqorida qayd etilganidek, Markaziy Osiyoning barcha shahar va qishloqlarida yashab dehqonchilik, savdo - sotiq va hunarmandchilikning turli sohalari bilan shug'ullangan¹.

Turg'un turkiyzabon aholi bir necha yo'nalishda son jihatidan ko'payib borgan: a) tabiiy ko'payish (tug'ilish) yo'li bilan; b) bir tilda gapiruvchi etnik

¹Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... – Б. 184.

guruxlarni qo'shilishi bilan; v) turkiyzabon bo'lmagan boshka til turkumidagi etnik guruxlarni turkiylashishi bilan va boshkalar.

Tabiiy yo'l bilan ko'payish inson taraqqiyotining asosiy yo'nalishi, desa xato bo'lmas. O'g'il - qizni uylantirish, farzand ko'rish, uni tarbiyalab voyaga yetkazish, kishilik taraqqiyotining qaysi bosqichida bo'lmasin, insonning mukaddas burchi hisoblangan. Insonning shu yo'sinda borishi bilan qishloq, shahar va dasht - cho'l aholisining yildan - yilga asrdan - asrga ko'payishi ta'minlangan.

Tabiiy ko'payishning xavf - xatarli tomonlari ham bo'lgan albatta. Tabiiy ko'payishning eng xavflisi turli yukumli kasalliklarning mavjudligi edi. Inson bolasi go'dakligidan turli kasalliklarga chalingan, shulardan eng xavflisi chechak, bezgak, bo'g'ma, sariq, qizamiq, ichburug' bo'lgan. Bu kasalliklardan qanchadan - qancha bolalar nobud bo'lib ketgan. Vabo va tif kasalliklari katta - kichikning yostig'ini quritgan. Aholi turli usullar bilan bu dardlarga qarshi kurashib kelgan bo'lsalar hamki, lekin ularning oldini olishga, davolashga ba'zan ojizlik qilib qolganlar.

Urush, ichki va tashqi kurashlar ham insonning ko'payishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bir davlat ichida mavjud bo'lgan viloyatlar, feodal - zodagonlar, qabilalar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, kurashlar ko'p kishilarni bevaqt o'limga duchor qilgan.

Feodalizm tuzumida bir davlat ikkinchi bir davlat bilan urush qilganda yoki bosqinchilik qilib kirib kelgan kezlarda shahar va qishloqlar vayron qilingan, ko'plab odamlar qirilgan, ona - ota bolalaridan, bolalar esa tug'ishganlaridan ajralib qolgan, ko'plab kishilar qul qilinib, o'zga yurtlarga sotilgan. Masalan, arablar Xurosonni zabt etgach (716—717 yy.) Dixiston turklaridan 14 ming kishini, Jurjonda 40 ming kishini qatl etganlar, ko'plarini asirga olib Arabistonga haydab ketganlar.

Ismoil Somoniy 893/94 yillar Tarozi shahrini bosib olganda qarluq turklarining xoni Tankasni xotin - bola chaqalarini va ular bilan birga o'n besh ming kishini asirga oladi, 10 ming kishini qatl etadi. Qoraxonlarning Movarounnahrda kirib kelishi (IX asr oxiri X asr boshi) ham qurbonsiz bo'lmagan,

albatta. Bu xil misollar tarixda juda ko‘p bo‘lgan va ularning barchasi og‘ir fojealar bilan yakunlangan.

Tinch osoyishtalik kezlari da aholi o‘zini o‘nglab olgach, oila qurish, bola - chaqa qilib, yo‘qolganlarning o‘rnini to‘ldirib, yana ham oila nikoh orqali ko‘payib borgan. Turkiy xalqlar, xoh turg‘un, xoh ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi, yarim o‘troq bo‘lsin farzandlarining ko‘payishidan manfaaddor bo‘lganlar. Bolajon o‘zbek xalqi serfarzand bo‘lishni oila barqarorligining garovi deb bilgan. Oilada farzand qanchalik ko‘p bo‘lsa, oila shuncha mustahkam bo‘lishiga, oila manfaatini himoya qilishga qodir ekanligiga qattiq ishonch hosil qilingan. Oilaning katta - kichik bo‘lishi xo‘jalik faoliyatiga ham kerak edi. Chorvasi ko‘p ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi oilalarda kishi soni qancha ko‘p bo‘lsa, chorva mahsuloti unumli bo‘lishi mumkin edi. Yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troq aholi chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan ham shug‘ullanib kelganlar. Demak, bularning xo‘jaligida ham oilani serfarzand bo‘lishi o‘ta zarur edi.

Movarounnahrda va Yettisuvda yashovchi turkiy xalqlarning ko‘pchiligi o‘z jamoalaridan tashqariga qiz bermaganlar, qiz ham olmaganlar. Boshqacha qilib aytganda, bularda endogamik nikoh hukm surgan. Nikohning bu turi urug‘ va qabilalarning hamda turg‘un aholini bir - birlari bilan yaqinlashishi uchun muhim omil hisoblanadi. Kezi kelganda nafaqat boshqa (qavm - qarindosh bo‘lmagan) turkiy elatlar bilan hatto boshqa tildagi va dindagi kishilar bilan ham qudaband bo‘lganlar. Turkiyzabon aholining ayrimlari (masalan xo‘ja, sayid) o‘z guruhlaridan boshqaga qiz bermas edilar, qiz ham olmas edilar. Lekin bulardan ham ba‘zan ta‘qiq buzilib turgan. Shunday qilib, nikoh qudabandlik yo‘li bilan xalqlar, elatlar bir - birlari bilan yaqinlashib, qorishib kelganlar. Nikoh jarayoni uncha sezilarli tuyulmasada, ammo ta’sirchan kuchga ega bo‘lgan; bu jarayon orqali kishilar, urug‘ - qabilalar, hatto davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatish, oldini olish borasida ham ahamiyati katta bo‘lgan¹.

Arab va forsiy tilli manbalarda qayd etilishicha, turkiy xalqlar qaysi hududda yashamasinlar so‘g‘diylar va ularning keyingi avlodlaridan biri tojiklar ham o‘sha

¹Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... – Б. 200.

yerlarda yashab kelganlar. Shuning uchun ham Maxmud Qoshg'ariy (XI asr) o'z davrida keng tarkalgan quyidagi xalq maqolini keltiradi: «Totsiz (so'g'diysiz) turk bo'lmas, boshsiz bo'rk (qalpoq) bo'lmas»¹. Boshqacha qilib aytganda, Bosh bo'rksiz bo'lmagandek, turk ham so'g'diysiz bo'lmagan.

Turkiy aholi bilan shahar va qishloqlarda birga yashagan so'g'diylar (So'g'daklar) turk va so'g'd tilini baravar bilganlar. Mahmud Qoshg'ariy yozgan edi: «Balasag'unliklar so'g'dcha va turkcha so'zlaydilar. Tarozi va Madantulbayza (Sayramning ikkinchi nomi) shaharlarining xalqlari ham so'g'dcha, ham turkcha so'zlaydilar».

Turkiy tilli etnoslarning ham ayrim guruxlari boshqa tildagi va madaniyatdagi etnoslar tarkibiga kirib, ma'lum vaqt o'tishi bilan shu etnosning tilini, madaniyatini qabul qilib uzoq vaqtlargacha ularning tarkibida aloxida etnik guruh bo'lib qolishi yoki batamom qatnashib, unga singib ketishi mumkin. Misol tariqasida Afg'oniston zaminiga borib o'rtnashib qolgan xalajlarni eslab o'tishning o'zi kifoya.

Markaziy Osiyo xududlarida yashovchi ko'chmanchi qabilalarda ham etnik jarayon bir muncha chuqurlashib kolgan edi. IX—X asrlarda chorvador ko'chmanchilarning qabilaviy tuzumida, turmush tarzida jiddiy o'zgarishlar ro'y bergan. Ko'chmanchi etnoslarda turg'un hayot kechirishga intilish kuchayadi. Bu jarayon o'z navbatida ko'chmanchilarning tabaqalanishini jadallashtiradi; oldingi kabila uyushmalari va qabila ittifoqlari buziladi.

Yettisuvda yashovchi yirik kabilalar va kabila ittifoqlarining (qarluq, chigil, arg'u, tuxsi, turkesh va boshq.) iqtisodiy tanglikka uchragan guruxlari qabila tarkibidan chiqib qishloq va shaharlarda turg'un hayot kechira boshlaydilar; ularning boshqa bir qismi yarim ko'chmanchilikda qolib, bular chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan ham shug'ullanib kelganlar.

Ko'chmanchilarning ayrim guruxlari yarim o'troqlikka o'tib bular ko'proq dehqonchilik bilan shug'ullanganlar: shu bilan birga ular chorvachilikni ham (uncha ko'p miqdorda bo'lmasada) davom etganlar. So'zsiz, ko'chmanchi

¹Махмуд Қошғарий. Кўрсатилган асар, 1-жилд, 33-бет.

qabilalarning xo‘jaligida yuz bergan bu o‘zgarishlar feodalizmni tobora taraqqiy etib borishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak. Bu yo‘sindagi taraqqiyot yillar o‘tishi bilan qabila uyushmalarining yemirilishiga va yangi qabila ittifoqlarining va davlatning vujudga kelishiga olib keladi.

Ko‘chmanchi qabilalarning katta qismi Yettisuvda, Sirdaryo bo‘ylarida, Orol dengizi cho‘llarida, Sharqiy Turkistonda va Farg‘ona vodiysining shimoliy tumanlarida joylashgan edi. Bu hududlarda yashovchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalarning ko‘pchilik qismini qarluqlar va ularga qardosh chigil qabilalari tashkil qilgan.

Qarluq va chigillarning katta guruhi VIII asrning oxiri va IX asr boshlarida o‘troqlasha boshlagan edi. Bularning yirik bir guruhi VIII asrda Zarafshon vohasida yashab, keyinchalik shu yerda o‘troqdashib qolgan. VI—VII asrlardan buyon Farg‘onada yashab kelayotgan qarluqlarning ko‘pchiligi ham keyinchalik o‘troqlasha boshlaydi. Ammo bularning soni Sharqiy Turkistondan va Yettisuvdan kelib turgan qardoshlari bilan tobora ko‘payib borgan. Tarixiy manbalarda qarluqlarning Farg‘onada to XVI asrning boshlarigacha yashaganliklari haqida ma’lumotlar bor¹. Shubhasiz qarluqlar VI asrdan to XVI asrgacha bo‘lgan katta davr ichida Farg‘onada o‘troqlashib, yerli xalqlar bilan aralashib ketganlar va o‘zlarining etnik nomlarini yo‘qotganlar.

Qarluq va chigillarning ayrim guruxlari o‘g‘uz - saljuqlar bilan g‘arbga siljib Kichik Osiyoga borib, keyinchalik turk xalqining tarkibiga kirib, ularga qorishib ketgan. Bu etnoslarning Turkiya zaminida bo‘lganligi, hozirgacha saqlanib qolgan qarluq va chigil etnotoponimlari dalil bo‘la oladi.

Qarluqlar davlati tarkibidagi etnoslar bir hududda qariyb ikki asr davomida yonma - yon, ba’zan (shahar va qishloqlarda) aralash holda yashab kelganliklari tufayli ularning tilida va madaniyatida umumiylik hosil bo‘lgan².

Boshqa - boshqa etnik muhitda yashaganlari tufayli qarluq va uyg‘urlarning qadimgi tillarida o‘zgarishlar ro‘y bergan, albatta. Bularning tili ilk, qabilaviy

¹Захириддин Муухаммад Бобур. Бабурнаме. Русский перевод М. Салье. Ташкент, 1958, С. 128.

²Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... – Б. 197.

tillardan fonetik, leksik va grammatik jihatidan farq qila boshlaydi. Ammo shunga qaramasdan qadimgi qarluq va uygʻur tillarining asosi, ularning bir - birlariga yaqinligi IX—X asrlarda hamda undan keyingi asrlarda ham saqdanib qolgan.

Shunday qilib, IX—X asrlarda Yettisuvda, Toshkent vohasida, Movarounnahrda turgʻun yashovchi turkiyzabon aholi, yarim koʻchmanchi, yarim oʻtroq qavmlar uchun qarluq tili umumiy bir til boʻlib qolgan.

Tilning bu oʻzgargan formasiga oʻtishda chigillarning ham roli katta boʻlgan. Qarluq - chigil tili bu qabilalar bilan yonma - yon va aralash yashagan boshqa turkiy qabilalarning va turgʻun yashovchi turkiy aholining dialektlarini birlashtirishda asos boʻlgan, albatta.

Yuqorida keltirilgan dalil va mulohazalarga asoslanib IX—X asrlarda Markaziy Osiyoda yashovchi turgʻun aholi bilan koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi qabilalarning oʻzaro aloqalari qatʼiylashib qolgan edi, desak xato boʻlmas. Bu aloqalar natijasida chorvador aholining katta qismi oʻtroqlashib, vohalardagi turgʻun aholining son jihatdan yana ham koʻpayishiga olib keladi. Shu asrlarda qabilalarning ham bir - birlari bilan yaqinlashish, aralashish jarayoni kuchayadi. Oldinlari mavjud boʻlgan qabila va qabila ittifoqlari buzilib yangi qabila uyushmalari vujudga keladi. Bu yangi qabila uyushmalariga yetakchi qabilalardan tashqari, bir qancha boshqa urugʻlar, qabilalar yoki qabila parchalari qoʻshiladi. Boshqacha qilib aytganda yetakchilik qilib kelayotgan qabila tarkibiga oldinlari qavm - qarindoshchilik aloqasida boʻlmagan etnik guruhlar ham kirishi mumkin boʻlgan.

Uygʻurlar haqida gap ketganda «ularning tillari turkchadir, lekin oʻzlari bir - birlari bilan soʻzlashadigan boshqa tillari ham bor» deb taʼkidlagan edi, Mahmud Qoshgʻariy. Demak uygʻurlarda ham, umum uygʻur tilidan tashqari qabilaviy va hududiy laxjalar mavjud boʻlgan¹.

Mahmud Qoshgʻariyning maʼlumotlaridan vohalardan tashqarida yashovchi aholining tilida oʻzgarish kamdan - kam boʻlgan. «Eng toʻgʻri va aniq til faqat birgina shu tilni biladigan, forslar (tojiklar) bilan aralashmaydigan va shaharga

¹Бўриев О., Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. - С. 2008. —Б. 45.

borish - kelish qiladigan odami bo'lmagan kishilarning tilidir», — deb yozadi olim.

Qarluqlar davlati tarkibidagi ayrim etnik guruhlar xristian dinida (nestrianlik mazhabida) bo'lgan. Lekin bu va yuqorida tilga olingan budda hamda manixeylik dinlari G'arbiy Turk xoqonligida uncha rivoj topmagan. Islom dini kirib kelishi bilan bu diniy e'tiqodlarning ta'sir doirasi pasayib, keyinchalik ularning ayrimlari (budda, xristianlik) turklar dunyosidan butunlay chiqadi. Moniylik e'tiqodi bir necha asrlar davomida (ayniqsa uyg'urlarda) saklanib qolgan edi.

Yuqorida qayd etilganidek, Sirdaryo sohillarida o'g'uzlar, Yettisuvda va Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida qarluqlar, chigil, xalach, yag'mo, tuxsi va boshqa qabilalar yashaganlar. Bularning salmokli qismini ko'chmanchi qabilalar tashqil qilgan. IX—X asrlarda Yettisuv va Sharqiy Turkistonning g'arbida joylashgan ko'chmanchi qabilalarning talay qismi turg'unlikka o'tib qishloq va shaharlarda, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Ularning ikkinchi bir qismi o'troq va yarim o'trokdikda kun kechirishni davom ettirib kelgan.

Qarluqlar davrida, ular yashaydigan xududlarda me'morchilik san'ati ham rivojlanib borgan. Imoratlarni endilikda (IX—X asr) ulug'vor va hashamatli qilib qurish, uning devorlariga sifatli ishlov berish, naqsh solish, bezash odat tusiga kirgan. Sarig' shaxrining xarobalarida arxeologlar tomonidan qarluqlar davriga oid uy devorlari ochilgan. Devorlar nafis naqshlar va gullar bilan bezalgan. Gullar geometrik va o'simliklar shaklida berilgan. Qarluqlar davrining xususiyatlaridan yana biri shu ediki, bu asrlarda Yettisuvda, Movarounnahrda shaxriston tipidagi mustahkam turar joylarni qurish ommaviy tus oladi. Bu xil qurilishlar qarluqlar hududida oldindan mavjud bo'lib kelgan alohida xavfli qo'rg'onlar vujudga kelgan edi. Chu vodiysidagi Aleksandrovskiy va qisman Suquluk xarobalarida olib borilgan arxeologik izlanishlar buni to'la tasdiqdaydi¹.

Qarluqlar davrida hunarmandchilikning bir necha sohalari, jumladan, temirchilik, kulolchilik, duradgorlik, o'imakorlik va bir qancha boshqa sohalari

¹Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... — Б. 203.

keng rivojlangan bo'lgan. Turg'un yashovchilar va yarim ko'chmanchilar hunarmandchilikning barcha sohalarini mukammal o'zlashtirib olgan edilar.

Turkiy xalqlar hunarmandchilikning ayrim sohaları, masalan, temirchilik bilan qadimdan shug'ullanib kelganlar. Qarluqlar temirchi ustalarining mahsulotlari bozorga chiqarilgan. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ustalar o'z xo'jaligini yoki qishloq aholisining ehtiyojlarini qondiradigan kosiblar bo'lib qolmasdan, balki bozor uchun ham mahsulot beradigan hunarmandlar darajasiga yetgan edilar. Qarluq ustalari yasagan qilich, nayza va zanjirlar (urushda qurol sifatida qo'llangan) nafaqat turkiy dunyoda balki slavyan mamlakatlarida, jumladan Kiev Rusida ham ma'lum edi. «Slovo o polku Igoreve» nomli asarda XII asrda Kiev knyazlarining polovetslar (qipchoqlar) bilan olib borgan janglarda «Mechi Xarlujnye» (qarluq qilichi), «Xarlujnye kopi» (qarluq nayzalari), «Molotyat sepyami xarlujivimi» (qarluq nayzalari bilan uradilar) iboralarini ishlatilishi fikrimizning dalili bo'la oladi.¹

Islom dinining Yettisuvga kirib kelishi xunarmandchilikka, shaxsan kulolchilikka katta ta'sir qiladi. Sopol idishlarni sifatli qilib chiqarishga katta ahamiyat berildi. Idishlar formasining ko'rinishi o'zgardi. Shahar va qishloqlarning o'sib borishi, mustahkam devorlar bilan o'ralgan shaharlarning ko'payishi, sopol idishlarni, jumladan ko'za va xumlarni katta hajmda ishlab chiqarishni talab qiladi. Sopol «dasturxonlar»² yasash odat tusiga kiradi. IX—X asrlarda sopol idishlarni (tovoq, kosa, xurma, xum, chirok va boshqalar) sirlash ham keng tus oladi.

IX—X asrlarda buyumlarga naqsh solishga katta ahamiyat berilgan. Bu davrlarda ashyolarga beriladigan naqshlar turk xoqonliklari va undan oldingi davrdagidan batamom farq qiladi. Qadimdan turklarda buyumlarga hayvon suratini solish odat bo'lib kelgan edi. Bu asrlarda esa san'atda islom dini talablariga moslashgan o'simlik naqshlari solish keng ko'lamda qo'llaniladi. Bu uslub ko'proq ashyolarni bezashda ishlatilgan. Islom dinining ta'sirida Taroz shaxri orqali qarluqlar xududiga ba'zi idishlarni arab harflari bilan bezash odat tusiga kirgan.

¹Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... — Б. 278.

²Археологлар «дастурхон» деб номлаган буюм, ўша даврларда, кейинчалик тахтадан ясалган хонтахта ўрнида ишлатилган: унинг қалинлиги 3 см. Диаметри устки сатҳи 75 см. бўлган.

Qarluqlar davrida kiyim va bezaklarga ham katta e'tibor berilgan. Ustki kiyimlar asosan jun iplardan to'qilgan matolardan tikilgan. Turkiy xalqlarda qadimdan qo'llanib kelingan dastgoxlarda (do'konlarda) iplardan mato to'qilgan. To'qimalarning ishlanganlari bozorga ham chiqarilgan, albatta. Yuqori tabaqadagi (xoqon, xon, bek va b.) kishilarning kiyimlari ko'pincha ipakli matolardan tikilgan. Ipak matolar Movarounnahrda va Sharqiy Turkiston orqali Xitoydan keltirilgan.

Ustki kiyimlar ixcham tanaga yopishib turadigan kilib bichilgan, bel charm yoki maxsus (ipdan, ip aralash ipakdan) to'qilgan kamar bilan bog'langan. Avom xalq ko'pincha junli to'qimalardan tikilgan ust kiyimlar kiyib bellarini jun ipdan ingichka to'qilgan qur yoki chibchilgan (qirrali qilib to'qilgan ip) bilan bog'lab yurgan. Kamarga g'ilofga solingan shamshir (yuqori tabaqadagi kishilarda, harbiy sarkardalarda), qiniga solingan pichoq, kosa yoki piyola solib yuradigan charm qutti-chiniqop yoki tarkash, igna, bigiz, qayroq, paki, chaqmoq va chaqmoq tosh solinadigan, charmdan tikilgan maxsus buyum — g'udor yoki musvog taqib yurilgan; yoy-o'q solingan sadoqni (ko'pincha jangchilar, begbachchalar, ovchilar) yelkada olib yurganlar.

Sovuq paytlarda jun ipdan chakmon, astari yupqa kigizdan qilingan chaydam va po'stin, oshlangan teridan tikilgan issiq ishton (dambal) va boshqalar kiyilgan.

Madaniyat turlarini turkiy xalqlar orasida keng tarqalishida so'g'diyonaliklarning va farg'onaliklarning hissasi katta bo'lgan, albatta. Bularning ayrim guruxlari VIII—IX asrlarda Yettisuvga va Tangritog'ning shimoli-sharqiy hududlariga o'rnanib, bu yerlarda oldindan kelib yashayotgan yurtdoshlar bilan qo'shilishlari natijasida so'g'd va Farg'onadan kelgan guruhlar vujudga keladi. Bulardan Yettisuvda va Tangritog' tog' oralig'larida yashovchi turkiyzabon aholi hunarmandchilik va san'atning bir necha sohalarini mukammal egallashga musharraf bo'lganlar. O'zbek va tojik ajdodlari muqarrar ravishda olib borgan hamkorlik, madaniyatining bir-birlari bilan tobora yaqinlashib, umumiy o'xshashliklari ko'payib borishining muhim omillaridan bo'lgan.

Darhaqiqat, IX—X asrlarda shakllangan o'zbek elatining tarkibida etnoslarning xo'jalik faoliyati bir xilda bo'lmagan; turg'un aholining xo'jaligidan katta farq qilgan¹.

Etnik jarayonda qatnashgan etnik guruxlarning bir qismi hali ko'chmanchilar bo'lib, asosan chorvachilik bilan shug'ullanib kelar edi. Etnoslarning ikkinchi guruhi yarim ko'chmanchi va yarim o'troqliqda kun kechirib chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan ham shug'ullanib kelganlar: ularning uchinchi guruhi endigina turg'unlashib, hali o'troq aholining turmush tarziga batamom moslashib ketmagan edi. Tilga olingan guruxlar o'rtasida va ular bilan qadimdan turg'un yashab kelayotgan turkiy aholi o'rtasida iqtisodiy aloqalar yetarli darajada mujassamlanmagan edi. Bularning madaniyatida ham tafovut katta bo'lgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, Qarluq — Qoraxonlar davlati xududida IX—X asrlar davomida yashagan etnoslarda turli diniy e'tiqod (tangriga sig'inish, shomonlik, moniylik, burhonlik (budda), xristianlik va boshqalar) mavjud edi.

XI asrning birinchi choraklaridayoq, G'arbiy qoraxonlar hududining (ya'ni Movarounnahrning) etnik, iqtisodiy va madaniy hayotida o'zgarishlar yuz beradi. Shu asr boshlaridanoq, Yettisuv, Sirdaryo bo'ylaridan va Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalaridan qabila - urug'larning ko'chishi kuchayadi. Movarounnahrqa ko'chib kelgan qarluq, chigil va xalach qabilalari va qisman arg'u, tuxsi, qang'li va boshqa qabilalar edi.

Movarounnaxr hududiga ko'chib kelgan etnoslar dastlab asosan chorvachilik bilan shug'ullanganlar; ular qo'y, ot - yilqi, tuya va qoramollar saqlaganlar. Voha atroflaridagi cho'llarda ko'plab qo'y suruvlari, daryo vohalarida va tog'li xududlarda yilqi va qoramol boqilgan.

Chorvachilik yarim ko'chmanchi va yarim o'troq xalqlar uchun asosiy ozuqa (go'sht, sut, yog') va xom ashyo (jun, teri) manbai edi. Ot va tuya nafaqat harakat vositasi (minib yurish uchun), yuk tashish, aravaga qo'shish uchun ham kerak edi. Ko'chmanchi etnik guruxlar, masalan, qipchoqlar, uy - ro'zg'or buyumlarini to'rt

¹Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... — Б. 235.

g'ildirakli aravaga yuklab, bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib yurganlar¹. Aravaga — ho'kiz ham qo'shilgan.

Qipchoqlarda yilqichilik keng taraqqiy etgan. Keyingi asrlarda (XIV) keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda ayrim qipchoq boylarida bir necha ming bosh ot - yilqilar bo'lgan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi etnoslar uchun ot eng foydali hayvon hisoblangan. Undan ozuqa mahsulotlari (go'sht, yog', sut), xom ashyo (teri) olingan, minib yurilgan va yuk tashilgan.

G'arbiy Qoraxonlar davlati taraqqiyotining birinchi davridayoq turg'un aholi bilan yarim ko'chmanchi va yarim o'troq chorvadorlar orasida o'zaro iqtisodiy munosabatlar o'rnatiladi. Savdo - sotiq orqali dehqonchilik mahsulotlari, chorvachilik mahsulotlari bilan ayirboshlash keng yo'lga qo'yiladi. Chorvadorlar bozorga qo'y, ot, tuya, qoramol, jun, teri va boshqa mahsulotlarni sotib, o'rniga bug'doy, arpa, tariq, guruch va boshqalar olganlar. Shu yo'sinda olib borilgan o'zaro hamkorlik o'troq aholi bilan chorvadorlar orasidagi aloqalarni mustahkamlaydi va buning natijasida, ularning bir - birlariga nisbatan ishonchini qat'iylashtirgan.

Aholining o'zaro uchrashuv joyi bozor bo'lgan. Bozorda shahar, qishloq aholisi va chorvadorlar bir - birlari bilan ko'rishib, muloqotda bo'lib viloyat va davlat miqyosidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoldan xabardor bo'lib turganlar.

Movarounnahrda tijorat ishlarini rivojlantirishda va mahsulotni ko'plab bozorga chiqarishda bu o'lkaning markaziy shaharlaridan o'tgan buyuk ipak yo'lining ham roli benihoyat katta bo'lgan. Savdogarlar sharqqa, g'arbga, shimol va janubga karvon boshlab, aholining nafaqat narx - navo past yoki balandligidan, tovarlari xilma - xilligidan va hatto dunyo voqealaridan ham xabardor bo'lib turganlar.

¹Арава илк ўрта асрларда ва ундан кейин ҳам кўчманчилар ва ярим кўчманчиларда кенг қўлланилган (Қаранг: В. В. Бартольд, О колесном и верховом движении в Средней Азии, Соч. Т. IV., М., 1966, С. 406—408). Қипчоқдарда кўчманчиликка мослашган тўрт гилдиракли аравага ўрнаштирилган уй (кўтарма) XX аср бошларигача сакданиб қолган. Қаранг: Шониёзов К. III. К этнической истории узбекского народа. Т., 1974, С. 234—235.

Shahar va qishloq aholisining tabora ko'payib borishi tufayli chorvachilik mahsulotiga talab oshib boradi. Bu esa o'z navbatida mol egalarini rag'batlantirib, chorva mollarini ko'paytirishga olib keladi. Chorva mollari ayrim tadbirkor ishbiarmon kishilar qo'lida to'planadi. Vohalarda yirik chorvadorlar paydo bo'lib, ko'plab chorva mollari ularning qo'lida bo'lgan. Yirik moldor xo'jaliklar vohalar atroflaridagi yaylovlarga egalik qilib oladilar.

Boy chorvadorlarning mollari soni ko'payib borishi bilan Movarounnahrda yaylov yerlari tobora kamayib boradi; chorvadorlar orasida tabaqalanish kuchayadi. Mollari kamayib o'rta hol va kambag'al oilalar ko'payadi. Natijada bu tabaqadagi kishilar dehqonchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'ladilar. Agar, chorvalari kamayib borayotgan xo'jaliklar o'z an'alariga rioya qilib, faqat qo'llarida qolgan besh - o'nta mol bilan kun kechirmoqchi bo'lganlarida ochlikka muhtalo bo'lishlari hech gap emas edi. Shuning uchun ham chorvador qabilalarning ko'pchiligi XI asrning birinchi choraklaridayoq asta - sekin o'troqlasha boshlagan edilar. O'troqlashish jarayoni XI asr oxirlarigacha va undan keyin ham davom etadi.

XII asr boshlarida chorvador qabilalarning ko'pchiligi batamom o'troqlashib, nafaqat qishloqlarda, balki shaharlarda ham yashab, ziroatchilik, hunarmandchilik va tijorat bilan shug'ullanib kelganlar. Ularning juda oz qismigina yarim o'troqdikda hayot kechirib, dehqonchilik bilan bir vaqtda chorvachilikni ham davom etdirganlar. Ammo endilikda dehqonchilik chorvachilikka nisbatan, ularning xo'jaligida asosiy o'rinni egallagan.

Chorvadorlarning o'troqlashishida turg'un aholining ta'sir doirasi kuchli bo'lgan. Bu o'lkada qadimdan yashab kelgan turg'un aholi va ilk o'rta asrlarda kelib joylashgan va keyin o'troqlashib ketgan qabilalarning iqtisodiy va madaniy hayoti XI asrda kelgan etnoslarga ta'sir etmasdan qolmagan, albatta. Turg'un aholining nisbatan to'q, osoyishta yashashi chorvadorlar katta qismining turg'unlikka o'tish sabablaridan biri bo'lgan, albatta. Turg'un aholi bilan

chorvadorlar orasida o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarning tobora chuqurlashib borishi Movarounnahrda mavjud bo‘lgan etnik jarayonni jadallashtiradi¹.

XI asrda etnik jarayon bir necha yo‘nalishda borgan:

1) XI asr birinchi yarmida va undan keyin Movarounnaxrga kelib qolgan, hali batamom o‘troqlashib ketmagan etnik guruxlar bir - birlari bilan yaqinlashib borgan. Natijada ayrim etnik guruxlar yoki urug‘lar o‘z qabilasi tarkibidan chiqib, boshqa qabila yoki qabila ittifoqi tarkibiga kirib, u bilan qo‘shilib ketadi. Bu jarayon tufayli ma‘lum bir etnik guruh yoki urug‘ bir necha qabila ichiga kirib unga qorishib ketishi mumkin bo‘lgan.

2) Chorvador qabilalarning turg‘un turkiyzabon aholi bilan yaqinlashib borishi etnik jarayonning muhim yo‘nalishi hisoblangan. O‘troq aholi bilan aralashib qolgan etnik guruxlar, uzoq vaqtlargacha, ularning tarkibida o‘z etnik nomlarini saqlab qolganlar. Turg‘un aholi bilan obdon qorishib ketgach, etnik nomlarini unutib, yashab turgan qishlog‘i yoki mintaqalaridagi aholi bilan o‘zlarini bir xalq deb hisoblaganlar. Ammo bir necha vaqtlargacha ma‘lum etnik guruh yashagan qishloq shu etnik guruh nomi bilan atalib (etnotoponim bo‘lib) ham qolgan.

3) Turkiy tilli aholi (turg‘un va chorvador qabilalar) Movarounnahrda yashovchi tojik va arab tilli xalqlar bilan yaqinlashib aralashib borishi ham etnik jarayonning yo‘nalishlaridan hisoblangan. Ularning bir - birlari bilan yaqinlashishi va aralashib borishi qaysi etnik muhitda yashashi bilan bevosita bog‘lik bo‘lgan. Agar turkiy etnos - guruxlari tojik tilli aholi ko‘p yashagan xududga (etnik muhitga) tushib qolsa, vaqt o‘tishi bilan turkiy guruxlar yoki ularning ayrimlari aralashib til jihatdan tojiklashib borgan. Shu jarayonning teskarisi ham yuz berib turgan: tojik tilli guruxlar turkiy tilli, aholi ko‘pchilikni tashqil qilgan hududga, etnik muhitga tushib, uzoq yashab qolgan bo‘lsa, ular turkiy tilni qabul qilib, ularga aralashib turkiylashib qolgan.

Demak, XI—XII asrlarda Qoraxonlar davlati hududida turkiy tilning uch yirik (qarluq - chigil, o‘g‘uz va qipchoq) dialekti mavjud bo‘lgan. So‘zsiz bu

¹Бўриев О., Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. - С. 2008. – Б. 61.

dialektlardan tashqari qabilaviy hamda hududiy dialektlar ham mavjud edi. Lekin eslatilgan uch yirik dialektning ta'sir doirasi kuchli bo'lgan, desak xato bo'lmas.

Qoraxonlar davlati ichida yashovchi turg'un turkiy aholining tili bir xil bo'lmagan, bu haqda Mahmud Qashg'ariy aniq ma'lumot beradi¹. Shu bilan birga turg'un aholi orasida qarluq - chigil dialekti keng o'rin olgan. Lekin Qoraxonlar davlati xududida, xususan uning g'arbiy qismida yashovchi turg'un aholi tilining lug'aviy tarkibi arab va tojik terminlari bilan boyib qolgan edi. Qarluq - chigil tili ham uning taraqqiy etish jarayonida tojik va arab so'zlari bilan boyib borgan, natijada bu til XI—XII asrlarda ilk o'rta asrlardagi qarluq chigil tillaridan birmuncha farq qilgan bo'ladi.

Qarluq - chigil tili yetakchi til bo'lib kelgan hududda siyosiy hukmronlik bir necha asrlar davomida asosan qarluqlar qo'lida bo'lgan. Bular hukmronlik qilib kelgan mintaqalarda o'z tillarining ustivorligini himoyalab kelganlar. Shuning uchun ham bizning fikrimizcha, Yettisuvning yirik shaharlarida, Sirdaryoning o'rta oqimlarida, Sharqiy Turkistonning G'arbiy qismida, Farg'ona va umuman Movarounnahrda X—XII asrlarda va undan keyin yozilgan asarlarning aksariy ko'pchiligi qarluq - chigil tilida, Sharqiy Turkistonning Torim daryosi bo'ylarigacha bo'lgan shaharlarida va bu daryoning shimoli - sharqida, ya'ni uyg'urlar ilk o'rta asrlarning oxirlaridan yashab kelgan joylarda yozilgan asarlar uyg'urlar tilida, Sirdaryo quyi okimlarida, Xorazmda, Volga bo'ylarigacha bo'lgan yerlarda yozilgan asarlar ko'pincha o'g'uz yoki qipchoq tillarida yozilgan desak, xato bo'lmas².

Qarluq - chigil tilining takomillashib borishi natijasida XI—XIII asrlar davomida o'zbek elatining adabiy tili shakllangan. Shu davrlarda bu tilda bir kancha asarlar yozilgan. Bularning ichida Yusuf Xos Hojibning (XI asr) «Qutadg'u bilig», Abul Abdulg'ofur el - Almoiy (XI asr) tomonidan yozilgan «Tarixi Qoshg'ar», Ahmad Yugnakiyning (XII asr) «Xibatul xaqoyiq», «Xo'ja

¹Махмуд Қошғарий. Девону лугатит турк. 1-жилд, 65—66-бетлар.

²Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни... – Б. 296.

Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i, Oʻrta Osiyoda yozilgan (XII—XIII asrlarda) «Tafsir» va boshqalar.

XI asr oʻrtalarida, Qoraxonlar hududida, xususan gʻarbiy qismda iqtisodiy va madaniy hayot bir muncha barqarorlashib shahar obodonchiligiga, meʼmorchiligiga ahamiyat beriladi.

Shams al - mulk (Tamgach xon Ibrohimning oʻgʻli) ham obodonchilikka eʼtibor bergan xonlardan edi: u ham bir qancha rabot, saroylar, Madrasa va maschit qurdirgan. Masalan, 1078 yilda Choʻlimaliqda, Karmanaga yaqin joyda rabota Malikni (Podsho rabotini) qurdirgan. U qurdirgan yana bir rabot Samarqanddan Xoʻjand tomon ketishdagi yoʻl yoqasida boʻlgan. Shams al-mulk Buxoroda va uning yaqinidagi yerlarda qurilishlar qilgan.

XI asrda Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashovchi xalqlarda mavjud boʻlgan maqollar, latifalar va sheʼr namunalari Mahmud Qoshgʻariyning asari «Qutadgʻu bilig»da koʻplab keltirilgan. Garchi bular arab alifbosida yozilgan boʻlsa hamki, lekin turkiy tilda bayon etilgan.

Xullas, XI asrda qoraxonlar hududida oʻzbek elati oʻz adabiy tiliga, yozma hamda ogʻzaki adabiyotiga ega boʻladi. Oʻzbek ajdodlariga xos umum elat madaniyatining shakllanishi jadallashadi.

XI asr boshlarida qoraxonlar Movarounnahrni batamom egallab, davlat hududini kengaytiradilar: Qoraxonlar davlati Markaziy Osiyodagi yirik davlatga aylanadi. Endilikda oʻzbek ajdodlarining etnik, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi shu katta hudud ichida oʻtadi.

Movarounnahrni Qoraxonlar davlatiga qoʻshib olishlari bilan siyosiy, hududiy jihatdan oʻz qardoshlaridan ajralib qolgan tojik va turgʻun turkiy xalqlar bir davlat ichida, yaʼni Qoraxonlar davlati xududida birlashishga muvaffaq boʻladilar. Bu xalqlarning etnik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti birgalikda bir hududsa, bir davlat tarkibida oʻtadi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, Movarounnahrda qadim davrlardan buyon turkiy aholi turgʻun yashab kelgan. Ilk oʻrta asrlarda bularning soni bu xududda yanada koʻpaygan edi. Turgʻun turkiy aholi tojiklar bilan birga, ajdodlari yaratgan

moddiy boylikning vorislari bo'lib, uni avaylab saqlab, himoya qilib, o'z hissalarini qushib, uni boyitib kelar edilar. Boshqacha qilib aytganda, Movarounnahrda mavjud moddiy va madaniy boylikni yaratishda, uni saqlab, boyitib borishda tojiklar bilan bir qatorda turkiy xalqlarning ham xissasi benihoyat katta bo'lgan. Yarim o'troklikda hayot kechirib kelgan turkiy etnik guruxlar ko'chib, Movarounnahrda kelib o'rnatilganlar. Ularning (shaxsan qarluqlarning) bir qismi Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashab qolgan. Shu davrda Yettisuvda yashovchi arg'u, tuxsi, turkesh qabilalarining ayrim guruxlari va Sirdaryo sohillarida joylashgan qang'li, qipchoq va boshqa etnik elementlar ham ko'chib o'tgan. Ko'chib kelganlar asosan Farg'ona vodiysida, Zarafshon vohasida, Qashqadaryo va Surxon vohalarida joylashganlar. Etnik guruhlarining ayrimlari (qipchoq, qang'li va boshq.) Xorazm vohasiga ham o'rnatilgan.

Ko'chib kelgan etnik guruxlar ma'lum vaqtacha Movarounnahr muhitiga o'rganib, ko'nikib borganlar. Bularning yangi joylarida batamom qolib, tub yerli aholi hayotiga moslashib ketishida, ulardan ancha oldin (o'rta asrlar davomida) kelib o'rnatilgan qardoshlarining ta'siri katta bo'lgan albatta. Turg'un aholi ta'siri tufayli XI asrning birinchi yarmidayoq, ko'chib kelganlarning ko'p qismi o'troqlashib, qishloq va shaharlarda yashab dehqonchilik, hunarmandchilik, ayrimlari esa tijorat bilan shug'ullanib kelganlar.

XI asrning o'rtalarida yuqorida qayd etganimizdek, G'arbiy Qoraxonlar davlati mustaqillikka erishadi. Shu vaqtdan boshlab o'zbek elatining iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti Movarounnahr va unga tutash mintaqalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. O'tgan 40—50 yil davomida tub yerli turkiy aholi bilan ko'chib kelgan etnik guruhlar deyarli aralashib ularning xo'jalik faoliyatini qabul kilib, turmush tarziga moslashib qolgan edilar. XI asrning ikkinchi yarmi — XII asrning birinchi yarmida Movarounnahr xududida etnik, iqtisodiy va madaniy aloqalar yana ham rivojlanib, ko'chib kelgan etnik guruhlar turg'un turkiy aholi bilan batamom qorishib ketishi tufayli etnik, iqtisodiy va madaniy umumiylik hosil bo'ladi. Turkiy (o'zbek) adabiy tili vujudga keladi. O'zbek elatining shakllanish jarayoni nihoyasiga yetadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, Movarounnahrda tutash viloyatlarning (Shosh, Isfijob, Qoshg'ar) etnik, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti G'arbiy qoraxonlar aholisining taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Garchi Shosh Isfijob va Qoshg'ar, Sharqiy qoraxonlar hududida bo'lsa hamki, lekin bu hududlar etnik, iqtisodiy va madaniy jihatdan Movarounnahr hayoti bilan uzviy bog'lanib kelganligi uchun ham hududlarda yashovchi turkiy aholi shakllangan o'zbek etnosining ajralmas qismi bo'lib qolgan¹.

Qarluqlar egallab turgan hududda IX asr ikkinchi yarmida islom dini qat'iy o'rnatilib qoladi. Ko'p dinga e'tiqod qilishdan yagona bir dinga o'tish bilan Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati va ma'naviyatida tubdan o'zgarish ro'y beradi. Endilikda ilmu fan, ma'rifat islom dini ta'limoti asosida taraqqiy etish boshladi.

IX—X asrlarda o'zbek xalqining tarixida yana bir muhim voqea yuz berdi: o'zbek ajdodlari alohida etnik birlik (elat) bo'lib shakllanadilar. Elat shakllanishidagi asosiy ko'rsatkichlar (etnik, hududiy, iqtisodiy, madaniy, o'zligini anglash va boshq.) shakllangan bo'lsa ham, ammo ularning shakllanish jarayoni bu asrlarda nihoyasiga yetmagan edi; buning uchun ma'lum davr — o'tish davri kerak edi.

XI asr o'rtalarida G'arbiy qoraxonlar mustaqil xukmronlik qila boshlagach, o'zbek xalqining etnikjarayoni shu xoqonlik hududida (Movarounnahr) davom etadi. Bu xududda o'zbek xalqining etnik, xududiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa etnik belgilarida umumiylik hosil bo'lib, o'zbek elatining shakllanish jarayoni nihoyasiga yetadi.

¹Бўриев О., Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. - С. 2008. – Б. 89.

Xulosa

Har bir elat ma'lum tarixiy davrda shakllangan. Shu davr ichida bir hududda yashovchi elatlar yoki ularning ayrim guruxlari bir - birlari bilan doimiy iqtisodiy va madaniy jihatdan yaqinlashadilar. Ularning o'zaro yaqinlashish jarayoni ko'pincha bir tilda gapiruvchi qavm - qarindosh, yurtdoshlar orasida mavjud bo'lgan. Etnik jarayonga shu xududda qadimdan yashab kelgan yoki boshqa viloyat, mamlakatlardan ko'chib kelgan (migrantlar) etnoslar yoki ayrim etnik guruxlar ham faol qatnashishlari mumkin bo'lgan.

Etnoslarning o'zaro yaqinlashish jarayonida ma'lum bir etnik guruh yoki komponent yetakchi rol o'ynaydi; boshqa etnik guruxlar shu yetakchi guruh atrofida bo'lib, u bilan til va madaniyat jihatidan yaqinlashib, jipslashib boradi. Ammo etnoslarning yaqinlashishi, ularning jipslashishi hamma vaqt ham muvaffaqiyatli bo'lavermaydi. Mamlakatda sodir bo'lgan siyosiy vaziyatlar, ichki nizolar, o'zaro kurashlar etnoslarni bir - birlari bilan yaqinlashishi, jipslashish (konsolidatsiya) jarayonini nihoyasiga yetmasdan tarqalib ketish hollari ham tarixda oz bo'lmagan.

Movarounnahrda ko'chib kelgan etnoslar bir necha yillar davomida (yarim ko'chmanchilik va yarim o'troqlikka xos an'anaviy hayotlarini davom qilib) qabila va urug'larga bo'linishi tartibini saqlab qoladilar. Urug' o'z navbatida bir qancha katta va kichik oilalardan tashqil topgan. Qavm - qarindoshlik guruxlari bir yoki bir necha ovulni tashqil qilgan.

Qabila urug'chilik tartibi hamma vaqt ham bir xilda, bir tartibda saqlanib qolmagan. Tartib vaqt - vaqti bilan buzulib, ayrim etnik guruxlar qabila va urug' tarkibidan chiqib boshqa qabila va urug'larga qo'shilib ketish hollari ham oz bo'lmagan. Bu jarayon, o'z navbatida, jamoa hayotida mavjud o'zaro munosabatlarni qavm - qarindoshchilik asosida emas, qo'ni - qo'shnichilik asosida olib borilishni kuchaytirgan.

Ko'chib kelgan qabilalar bilan Movarounnahrning turg'un aholisi o'rtasidagi farq sezilarli darajada saqlanib qolgan edi. Qabilalarning moddiy hayotida, xo'jaligida va turmush tarzlarida o'tmishdagi ko'chmanchilik asoratlari sezilarli

darajada bo'lgan. Ular islom dinini qabul qilgan bo'lsalar ham, lekin islomgacha bo'lgan diniy e'tiqod izlari hanuzgacha sezilarli darajada saqlanib qolgan edi.

Olimlarning fikricha, faqat vohalardan uzoqda, cho'llarda yashovchi chorvador qabilalarning tilida o'zga so'zlar (so'g'd - tojik, arab va boshqa) aralashmagan bo'lishi mumkin. Vohalarda va qishloqlarda yashovchi barcha etnoslarning tilida o'zgarish katta bo'lgan.

Mazkur ishda, asosan Movarounnahrda va Xorazmda taraqqiy etgan madaniyatning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga bo'lgan ta'sir doirasini aniqlash, ularning madaniy darajasi o'sib, o'troq aholining taraqqiy etgan madaniyatiga yaqinlashib borishi va nihoyat har ikkala etnik komponentlarning turg'un turkiyzabon aholi va ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi, yarim o'troq chorvadorlarni birlashishi tufayli elat bo'lib shakllanish jarayonini tezlashishi va boshqa masalalar yoritildi.

Ma'lumki, ilk o'rta asrning oxirlarida Movarounnahrda va Xorazmda shahar va qishloq madaniyati oldingi asrlarga nisbatan birmuncha taraqqiy etgan.

Voha atroflaridagi cho'llarda yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarga turg'un aholining ta'siri madaniy jihatdan kuchli bo'lgan. Turg'un aholining ta'siri natijasida IX—X asrlarda chorvador qabilalarning salmoqli qismi o'troqlashgan edi.

Shahar aholisining ta'siri bilan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholida ham ilm fanga intilish ishtiyoqi tug'iladi; yuqori tabaqadagi oilalarda o'g'illarni o'qitish, savodli qilish tuyg'usi kuchaygan edi.

Movarounnahr va Xorazm turg'un aholining madaniy ta'siri Sirdaryo sohillarida, Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashovchi turkiy aholiga ham sezilarli darajada bo'lgan. Bularning ta'sirida Sirdaryo sohillaridan Yettisuvda, Sharqiy Turkistonda yashovchi axolini salmoqdi qismi o'troqlashgan. Islom dinini qabul qilgan, madaniy taraqqiyotga erishgan.

Xullas Markaziy Osiyo xududlarida yashovchi o'troq aholi bilan ko'chmanchi qabilalar o'rtasidagi madaniy va ijtimoiy aloqalar natijasida etnik jarayon bir muncha jadallashib kolgan edi. Natijada IX—XII asrlarda chorvador

ko'chmanchilarning qabilaviy tuzumida, turmush tarzida jiddiy o'zgarishlar ro'y bergan. Ko'chmanchi etnoslarda turg'un hayot kechirishga intilish kuchayadi. Bu jarayon o'z navbatida ko'chmanchilarning tabaqalanishini jadallashtiradi; oldingi kabila uyushmalari va qabila ittifoqlari buziladi. Etnomadaniy jarayon jadallashuvi o'zbek elatini xalq sifatida shakillanishiga olib keldi va keyingi davrlarda esa uni yanada jipslashuviga ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
3. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 380 б.
4. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 366 б.
5. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. - 32 б.
6. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 528 б.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. -Б.84.
8. Каримов И.А.Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида.- Тошкент: Ўзбекистон, 2011.-439 б.
9. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.:Университет, 2007.
- 10.Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. –Т.: Шарқ, 2014.
- 11.Қаюмов А.Р. XIX – XX аср бошларида Ўзбекистон ҳудудида этник жараёнларнинг баъзи хусусиятлари.-Т, 2005.
- 12.Ўзбекистон ҳудудида анъанавий этнослараро жараёнлар.-Т., Янги нашр, 2011.
- 13.Жабборов И. М. Ўзбек халқи этнографияси.-Т., 1994.

- 14.Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент: Шарқ, 2001.
- 15.Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар.- Т., 1994.
- 16.Насриддинов Қ. Ўзбек дафн ва тазия маросимлари. Т., 1996
- 17.Махмуд Саттор. Ўзбек удумлари. Т., 1993
- 18.Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари XIX–XX асрлар. Т.,2003
- 19.Бўриев О., Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. - С. 2008.
- 20.Shamsutdinov R., Karimov SH. Vatan tarixi. K. 1/ - Т.: “Sharq”, 2016.
21. Шамсутдинов Р., МўминовХ. Ўзбекистонтарихи.- Т.: “Sharq”, 2013.
- 22.Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12 – том. – Т.: 2006.